

VOLUME #3
ISSUE#6,
IYUN 2025



**«YANGI O‘ZBEKISTONDA
TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR» RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIIY
KONFERENSIYASI**



**Research Science and
Innovation House**

 <https://universalpublishings.com>
editor@universalpublishings.com

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER



**«YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR» RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI.**

30.06.2025-yil.

Ushbu to'plamda « **YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR**» ilmiy konferensiyasi 2025-yil 3-soni 6-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.


Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga **DOI** unikal raqami biriktirilib, **Zenodo, Open Aire, Google
Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Konferensiya materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Konferensiya materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.



**“RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION
HOUSE” MCHJ**

TAHRIRIYAT

Bosh muharrir: Eshqarayev Sadridin Chorievich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot va tabiiy fanlar kafedrasini mudiri, kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O'zbekiston.

Mas'ul kotib: Boboyorov Sardor Uchqun o'g'li Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali magistranti

Nashrga tayyorlovchi: Eshqarayev Samariddin Sadridin o'g'li Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti magistranti

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

Texnika fanlari muharriri, Eshqarayev Ulug'bek Chorievich – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasini dotsenti, texnika fanlari nomzodi, Denov, O'zbekiston.

Texnika fanlari muharriri Babamuratov Bekzod Ergashevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, falsafa fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Kimyo fanlari muharriri Mirabbos Xojamberdiev Ikromovich- Berlin Technische Universität dotsenti, kimyo fanlari doktori, Berlin, Germaniya

Kimyo fanlari muharriri, Eshqurbonov Furqat Bozorovich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, kimyo fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Iqtisodiyot fanlari muharriri Otamurodov Shavkat Tillayevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti prorektori, iqtisod fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Ijtimoiy va gumanitar fanlar muharriri, Xudoyberdiyev Xursand Xudoyberdiyevich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, ijtimoiy-gumanitar fanlar doktori, Termiz, O'zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Otamurodov Furqat Abduraimovich, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali direktori, Termiz, O'zbekiston tibbiyot fanlari falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston.

Biologiya fanlari muharriri Nurova Zamira Annakulovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali. Termiz, O'zbekiston, biologiya fanlari doktori, dots., Termiz, O'zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Turabayeva Zarina Kenjabekovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, tibbiyot falsafa fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Sotsiologiya fani muharriri Eryigitova Lobar Qodirovna Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa sotsiologiya fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Jo'rayeva Ramziya Abdurahimovna Qo'qon davlat pedagogika instituti. Qo'qon, O'zbekiston filologiya fanlari doktori (PhD), katta o'qituvchi.

Fizika-matematika-fanlari muharriri Bobamuratov Ulug'bek Erkinovich Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa fanlari doktori, fizika-matematika-fanlari, Termiz, O'zbekiston.

**"YANGI O‘ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**
Volume 3, Issue 6, Iyun 2025

Tibbiyot fanlari muharriri Axmedov Kamoliddin Xakimovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son davolash fakulteti dekani, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tibbiyot fanlari muharriri Vohidov Alisher Shavkatovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi va bolalar urologiyasi kafedrasini mudiri Tibbiyot fanlari doktori, professor

Gumanitar fanlar muharriri Rahmonov Abduqahhor Abdusattorovich Ma’naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari, falsafa fanlari doktori (PhD)

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARI KASBIY FAOLIYATINI
O'RGANISH BOSQICHLARI**

Hayitova Zilola Maxmudjonovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti o'qituvchisi

Kuchkarov X

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti talabasi

O'qituvchi bilan o'quvchilarning individual kommunikativ faoliyatidagi axborot uzatish jarayoni boshqalar bilan muloqot qilishda ularga sub'yekt sifatida axborot uzatish orqali ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, ma'lumot uzatishga qaraganda, uni qabul qilishga moyillikni, individning muloqot ob'yekti sifatidagi ishtirokini xarakterlaydi. Sinfdagi o'zaro munosabatda o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi "ijtimoiy persepsiya" ning yuzaga kelishi o'zaro munosabat hamda hamkorlik jarayonida guruhdagi psixologik muhitni bir me'yorda saqlash imkonini beradi[1].

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy faoliyatining pedagogik-psixologik omillarini va boshlang'ich sinf o'qituvchilarning o'ziga xos psixologik xususiyatlari aniqlash maqsadida olib borilgan tadqiqot ishimiz boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot ishlarini tashkil etishda shuning guvohi bo'ldikki, boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z kasbiy faoliyatiga bo'lgan munosabati sinf o'quvchilari bilan bo'ladigan munosabatlarida ham namoyon bo'ldi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-psixologik trening muhim ahamiyatga ega bo'lib, darsda o'qituvchi va o'quvchi orasidagi munosabat, darsni o'zlashtirish, fikr yuritish, bilimga bo'lgan qiziqish va shaxsning faolligini oshiradi[2]. Trening mashg'ulotlari sinf va guruhlarda tashkil qilinsa, o'qituvchi bilan o'quvchining muomala jarayonida muammoli vaziyatlarni yechishni yengillashtiradi hamda o'zaro munosabatlarning yaxshilanishiga olib keladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabatlari kasbiy faoliyatda muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilarni kasbiy bilimlari, tajribalaridan kelib chiqadigan munosabatlarini to'g'ridan to'g'ri o'quvchilar idrok etishida ham qiyinchilik bo'lishi tabiiy. Shu sababli respondentlarning yordamga zaruratlarini chuqurroq o'rganish maqsadida olingan natijalarni tahlilini ko'rib chiqamiz. Respondentlarda tajriba guruhi va nazorat guruhlarida kasbiy faoliyati samaradorligini ta'minlovchi omillarini alohida ko'rsatib o'tishni joiz topdik.

Boshlang'ich sinf o'qituvchining pedagogik mahorati, qobiliyati va dars mashg'ulotining mazmundorligi omili o'qituvchining kasbiy bilim darajalari, tajribalari bilan belgilanadi[3]. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, har qanday o'qituvchi o'z ustida ishlab, kasbiy bilim, tajribalarini oshirib borishsa ham ularda kuchli psixologik zo'riqishlarni ko'rishimiz mumkin. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy tajribalar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari va psixik imkoniyatlarini bilishi hamda o'quvchi shaxsiga individual tarzda yana shug'ullanishi o'qituvchidan qattiq mas'uliyatni talab qiladi[2]. Bugungi kunda yosh o'quvchi shaxs xususiyatlariga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa omillarni ham hisobga olishimiz zarur.

Boshlang'ich sinf o'qituvchini ota-ona tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va oiladagi psixologik muhit ham uchinchi katta omil hisoblanadi. Aytaylik, maktabda sharoitlari yaxshi, o'qituvchi o'quvchi munosabatlarida muammo yo'q, lekin ota-ona tomonidan bola nazoratga olinib qo'llab-quvvatlanmasa biz kutgan natija bo'lmasligi aniq[3]. Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchi kasbiy faoliyatining samaradorligini ta'minlash uchun kompleks tarzdagi psixologik trening mashg'ulotlarini tavsiya etamiz.

Respondentlarda kasbiy faoliyatning pedagogik-psixologik omillari sifatida bir necha omillarni ko'rib chiqishga to'g'ri keldi. Ularni quyidagi guruhlarga tasniflab o'rgandik.

1. Boshlang'ich sinf o'qituvchi kasbiy faoliyatining mazmun-mohiyati
2. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarning maktab sharoitlari va dars mashg'ulotlarning tashkil etilishi
3. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining pedagogik imiji, psixologik portreti.
4. Boshlang'ich sinf o'qituvchi sinf o'quvchilari bilan bo'lgan munosabatlari

Boshlang'ich ta'lim samaradorligi uchun pedagogik texnologiyalardan, innovatsiyalar zarurligi sezildi. Hammamizga ma'lumki, boshlang'ich ta'lim sifat-samaradorligi uchun juda ko'p xorij tajribalarini ham o'rganishga to'g'ri keldi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun uslubiy ko'rsatmalari bilan birga kichik maktab yoshidagi bolalar psixologiyasini ochib beruvchi ya'ni kognitiv rivojlanishini ta'minlovchi amaliy mashg'ulotlar tavsiya etilganligining guvohi bo'ldik. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar maktab ta'limiga moslashib ketishi, fanlarni yaxshi o'zlashtirishi faqatgina o'qituvchilarga bog'liq deb aytish ham qiyin albatta. Ota-onalarning va oiladagi psixologik muhitga ham bog'liqlik jihati ham bor. Qolaversa o'quvchining psixologik xususiyatlari, psixik imkoniyatlarini hisobga olishimiz zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Гоноболин, Ф. Н. Книга об учителе. – М. ВЛАДОС, 2004. – 223 с.
2. Маслова Н.Ф. Стиль руководства учителя как способ социально-психологического воздействия. Руководство и лидерство. - М: 1973. – 53 с.
3. Mamedov K.K. Maktabgacha yoshdagi bolalar va o'quvchilarning aqliy rivojlanish xususiyatlari. Psixol. fanl. dokt. dis. - T: 2004. - 338 б.

TALABALARDA MULOQOT MADANIYATINING METODOLOGIK ASOSI

Muxamedova Dilbar Gafurdjanovna

O'zMU, "Psixologiya" kafedrasini mudiri,

Psixol.f.d.prof.

Sayitova Nargiza Xikmatillo qizi

O'zMU, amaliy psixologiya talabasi

Nutq madaniyati shaxsning boshqa odamlar bilan aloqalarida o'z-o'zini namoyon qilish instrumenti bo'lib hisoblanadi, muloqot madaniyati esa mutaxassis tomonidan oldingi muloqot tajribasidan yig'ilgan va muloqot vaqtida qo'yilgan maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan xatti-harakatlarni aks ettiradi.

T.K. Tokareva muloqot madaniyati tuzilmasini shaxsiy ta'limot sifatida qaraydi va bir butun majmuaning motivatsion, kognitiv-operatsion, emotsional-irodaviy, baholovchi kabi tarkibiy qismi sifatida ochib beradi.

Bunda muallif motivatsion komponentni, muloqot subektining shaxsni oliy qadriyat kabi anglashni, muloqot jarayonini esa ta'lim oluvchilar tomonidan shaxsga yo'naltirilgan muloqot turi sifatida o'zlashtirilishini va muloqot jarayoniga qiziqishlarini shu yo'sinda shakllantirilishi [1]ni muloqotning birinchi navbatdagi ahamiyati deb tushunadi.

E.Yu. Fetisovning fikricha, muloqot madaniyati – bu individni o'rab turgan ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlarning shaxsiy-psixologik texnologiyalari kompleksi. Bu o'zaro munosabatlarning samaradorligi, muvaffaqiyati, o'rganilayotgan hodisa darajasini aniqlab beradi[2]. Kommunikativ tuzilma – bu shaxsning ko'p qirrali tavsifi bo'lib, sotsiumda uni o'zining ko'p komponentli barcha qirralari va harakatlanishining teranligi bilan belgilanadi. Shaxsning muloqot madaniyati tuzilmasiga uning kommunikativ qobiliyatlari, munosabatlarni qo'llab-quvvatlab turish mahorati, ta'sir o'tkazishi, o'z urinishlarining natijalariga erishishga harakat qilishi, adekvat qabul qilishi, hamda o'zgalarning fikrlarini

sharhlashi, ularga bo'lgan munosabatlariga tolerantlik nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda fikr bildirishi va suhbat olib borishi va boshqalar kiradi.

I.I. Zareskaya muloqot madaniyatini qadriyatlar motivatsiyasi; fe'l-atvor, muomala kabi ikki komponent uyg'unligida ko'rib chiqadi[3].

Bunda, qayd etilgan komponentlarning shakllanishini mutaxassisning kerakli bilimlarga, etik me'yorlarga, muloqot prinsiplariga, hamda motivlarga, shaxsiy va ishshanlik sifatlariga, kommunikativ, interaktiv va perseptiv qobiliyatlarga ega bo'lishini va ularni qadriyatlarni hisobga olgan holda amaliy faoliyatda qo'llashni nazarda tutadi.

Muloqot madaniyati – ijtimoiy motivlar hamda ijtimoiy muhit bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilishni o'z ichiga oladi. Bunda muloqot madaniyati hamkorlar bilan munosabatni shunday o'rnatishni taqozo etadiki, bunda jamiyat talablariga zid chiqmagan holda, yyetarli darajada qulaylik (komfort) muhitini yaratish lozim bo'ladi. Muloqot madaniyati shaxsdan ijtimoiy me'yorlar va atrofdagilarning huquqlari bilan hisoblashishni talab etadi.

Muloqot madaniyatiga muloqot etikasini bilish, empatiyaga qobiliyatlilik va xuchmuomalalik, nizolarni oldini olish va hal eta olish ko'nikmasi, ma'lumotni tez va to'g'ri qabul qila olish, tahlil qila olish va uni yetkaza olish ko'nikmasi, o'zaro munosabatlarni tartibga solish, ishonch qozona olish mahorati kabi ko'nikmalarni kiritish mumkin.

V.P. Barkovskiy muloqot madaniyati tushunchasi ostida, odamlar orasidagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalash vositasi sifatida o'rtaga tushadigan o'zaro munosabatlarni tushunadi. Shu kabi o'zaro munosabatlar jarayonida subektlar o'zlarining biri-birlariga bo'lgan munosabatlarini ifodalaydilar. Muallif muloqot madaniyatining adekvat ta'sirchanlik, o'rab turgan real voqelikka baho berish; o'zaro munosabatlarning asosiy ko'nikmalari, ya'ni samarali o'zaro munosabatlarni o'rnatishga imkon beradigan bilimlar ro'yxati; barcha ijtimoiy vaziyatlar uchun muhim bo'lgan qo'llab-quvvatlash va taqdirlash ko'nikmalari; sokinlik, mo'tadillashgan ijtimoiy bezovtalik, xavfsirash[4] kabi komponentlarini sanab o'tadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, muloqot madaniyati tarkibiga shaxsning kommunikativ qobiliyatlari, bilimlari, ko'nikmalari, mahorati va muloqotga kira olish qobiliyati uning shaxsiy xususiyatlari sifatida qaraladi. O'zining mohiyatiga ko'ra bo'lajak mutaxassisning muloqot madaniyati samarali muloqot, o'zaro hamkorlik, mutaxassisning qo'l

ostidagilarining e'tiqodlarini yaxshilash, faoliyatlarida to'g'ri yo'nalishni shakllantirish maqsadida, ularning ongiga, his-tuyg'ulariga ijobiy ta'sir o'tkaza olishi, ta'lim olish jarayonida bilimlarni to'liq o'zlashtirish, anglash va mustahkamlash, kasbiy faoliyatni oqilona, maqsadga muvofiq tashkil etish kabi maqsadlarni amalga oshishini ta'minlashga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Токарева Т.В. Структура коммуникативной культуры будущего инженера. // Мониторинг в образовании. - 2006. - № 4. - С. 122-129.
2. Фетисова Е.Ю. Педагогические условия формирования коммуникативной культуры подростков, испытывающих трудности в обучении: Дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01. - Курск, 2006. - 205 с.
3. Зарецкая И.И. Коммуникативная культура как компонент педагогической культуры / И. Зарецкая // Директор школы: Научно-методический журнал. - 2005. - № 3 - С. 149-157.
4. Барковский В.П. Формирование коммуникативной культуры у будущих работников криминальной милиции. // Подготовка кадров: Научно-информационный журнал. - 2004. - № 4. - С. 120-126.

АРИТМИЯ И ЕЁ ПРИЧИНЫ

Бердимуродов Джавлонбек Хайрулла угли

Самаркандский государственный медицинский университет

Диллаев Абдурахмон Шамсиддин угли

Самаркандский государственный медицинский университет

Уринов Адхамжон Акрамович

Самаркандский государственный медицинский университет

Аннотация: В статье рассмотрены основные виды аритмий, их клинические проявления и причины возникновения. Аритмия — это нарушение ритма сердца, которое может приводить к снижению эффективности сердечной деятельности и развитию осложнений. Особое внимание уделено этиологическим факторам, таким как ишемическая болезнь сердца, гипертоническая болезнь, врождённые и приобретённые пороки сердца, а также влияние внешних факторов и образа жизни. Проведен обзор современных методов диагностики и лечения аритмий, что способствует улучшению качества медицинской помощи пациентам с данной патологией.

Ключевые слова: аритмия, сердечный ритм, причины, диагностика, лечение, ишемическая болезнь сердца, гипертония, сердечные заболевания.

Введение.

Аритмия — это одно из наиболее распространённых заболеваний сердечно-сосудистой системы, характеризующееся нарушением нормального ритма сердца. Сердечный ритм обеспечивает эффективную работу сердца, благодаря чему кровь поступает ко всем органам и тканям организма. Нарушение этого ритма может привести к снижению насосной функции сердца, развитию сердечной недостаточности и другим серьёзным осложнениям. В последние десятилетия наблюдается рост числа пациентов с различными формами аритмий, что связано с ухудшением экологической

обстановки, изменением образа жизни, а также увеличением числа заболеваний, способных провоцировать развитие нарушений сердечного ритма. Этиологически аритмии могут быть связаны с ишемической болезнью сердца, гипертонической болезнью, воспалительными процессами в миокарде, врождёнными и приобретёнными пороками сердца, а также влиянием психоэмоциональных факторов и эндокринных нарушений. Изучение причин аритмии и механизмов её развития имеет большое значение для своевременной диагностики, выбора эффективных методов лечения и профилактики осложнений. Цель данной работы — рассмотреть основные виды аритмий, их причины и современные подходы к диагностике и лечению.

Основная часть.

Аритмии представляют собой разнообразную группу заболеваний, объединённых общим признаком — нарушением нормального ритма сердечных сокращений. В норме сердце бьётся с регулярной частотой, обеспечивая адекватное кровоснабжение тканей организма. При аритмии этот ритм может быть ускоренным (тахикардия), замедленным (брадикардия), нерегулярным или хаотичным, что приводит к снижению эффективности работы сердца. Виды аритмий. Существуют различные классификации аритмий, но наиболее распространённая делит их на: Синусовые аритмии: связаны с нарушением работы синусового узла — основного водителя ритма сердца. Экстрасистолия: преждевременные сокращения сердца, возникающие вне нормального ритма. Тахикардии: учащённый сердечный ритм свыше 100 ударов в минуту, включая наджелудочковые и желудочковые тахикардии. Брадикардии: замедленный сердечный ритм менее 60 ударов в минуту. Фибрилляция и трепетание предсердий: хаотичные сокращения предсердий, приводящие к нерегулярному и часто учащённому пульсу. Атриовентрикулярные блокады: нарушение проведения импульса от предсердий к желудочкам. Причины возникновения аритмий. Причины аритмий могут быть разнообразными и часто имеют мультифакториальную природу. Основные из них включают:

1. Ишемическая болезнь сердца: нарушение кровоснабжения миокарда вызывает повреждение сердечной ткани, что способствует развитию аритмий.

2. Гипертоническая болезнь: повышение артериального давления приводит к структурным изменениям сердца, увеличению его нагрузки и риску аритмий.
3. Кардиомиопатии: поражения сердечной мышцы, как генетические, так и приобретённые.
4. Воспалительные заболевания сердца: миокардиты, перикардиты, которые могут нарушать нормальную проводимость импульсов.
5. Врождённые и приобретённые пороки сердца: аномалии строения сердца влияют на нормальную электрическую активность.
6. Эндокринные нарушения: тиреотоксикоз, сахарный диабет, которые влияют на метаболизм и электролитный баланс.
7. Психоэмоциональные и стрессовые факторы: могут вызывать функциональные нарушения ритма.
8. Приём некоторых медикаментов и токсические вещества: антиаритмические препараты, дигоксин, кофеин, алкоголь, наркотики.
9. Нарушения электролитного баланса: гипокалиемия, гипомagneмия, гиперкальциемия. Механизмы развития аритмий. Аритмии возникают в результате одного или нескольких из следующих механизмов: Нарушение образования импульса (поражение синусового узла, наличие эктопических очагов). Нарушение проведения импульса (блокада, замедление проводимости). Рециркуляция импульса (кольцевые тахикардии). Повышенная автоматия клеток миокарда. Диагностика аритмий. Для выявления аритмий применяются следующие методы: Электрокардиография (ЭКГ): основной метод диагностики, позволяющий определить тип и характер аритмии. Холтеровское мониторирование: длительная регистрация ЭКГ в течение 24-48 часов для выявления эпизодических нарушений. Электрофизиологическое исследование (ЭФИ): инвазивный метод для детального изучения механизмов аритмий. Эхокардиография: оценка структурных изменений сердца. Лабораторные исследования: выявление сопутствующих заболеваний, электролитных нарушений. Лечение аритмий. Лечение зависит от типа аритмии, её причин и выраженности симптомов: Медикаментозная терапия: антиаритмические препараты, бета-блокаторы,

блокаторы кальциевых каналов, антикоагулянты при риске тромбозов. Катетерная абляция: минимально инвазивный метод удаления участков ткани, вызывающих аритмию. Имплантация кардиостимулятора: при брадикардиях и атриовентрикулярных блокадах. Хирургическое лечение: в сложных случаях. Коррекция факторов риска: лечение основного заболевания, изменение образа жизни, отказ от вредных привычек.

Заключение: Аритмия является распространённым и многообразным нарушением сердечного ритма, которое может значительно ухудшать качество жизни и приводить к серьёзным осложнениям, включая сердечную недостаточность и тромбозы. Понимание причин и механизмов развития аритмий имеет ключевое значение для своевременной диагностики и выбора эффективного лечения. Современные методы диагностики позволяют точно определить тип аритмии и выявить её этиологию, что способствует индивидуальному подходу к терапии. Комплексное лечение, включающее медикаментозные средства, инвазивные процедуры и коррекцию факторов риска, позволяет значительно улучшить прогноз пациентов. Таким образом, раннее выявление и адекватное лечение аритмий играют важную роль в предупреждении осложнений и повышении качества жизни больных с сердечными нарушениями ритма.

Использованная литература:

1. Боровков В.А. Аритмии сердца: клиника, диагностика, лечение. — М.: Медпресс-информ, 2018. — 320 с.
2. Кожевников О.В., Гусев А.Н. Кардиология. — СПб.: Питер, 2019. — 450 с.
3. Петров С.В. Аритмии и их лечение. — М.: Эксмо, 2020. — 280 с.
4. Иванов Д.А., Смирнова Е.П. Современные подходы к диагностике аритмий. // Кардиологический журнал. — 2021. — № 5. — С. 45-52.
5. Назаров И.Н. Эффективность медикаментозной терапии при аритмиях. — М.: ГЭОТАР-Медиа, 2017. — 256 с.
6. Клинические рекомендации по аритмиям (Росздравнадзор, 2022). — URL: <http://cardiologyguidelines.ru>

7. Соловьев В.И., Лебедева М.А. Инвазивные методы лечения аритмий. — М.: Медицина, 2019. — 300 с.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATINI O'RGANISH

Raximova Iroda Giyojonovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy universiteti katta o'qituvchisi

Hayitova Zilola Mahmudjonovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kasbiy faoliyatini o'rganish jarayoni va uning ahamiyati tahlil qilinadi. Bolalarning kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlari, ularning qobiliyatlari va istaklari kasbiy yo'nalishni aniqlashda muhim omil ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirishda ota-ona, o'qituvchi va maktabning roli ta'kidlanadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik usullar yordamida bolalarning kasbiy qiziqishlarini aniqlash va qo'llab-quvvatlash bo'yicha tavsiyalar beriladi. Tadqiqot natijalari yosh avlodning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun muhim asos bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, o'quvchilar, kasbiy faoliyat, kasbga qiziqish, kasbiy rivojlanish, pedagogika, ota-ona roli, maktab ta'limi, qobiliyatlar, zamonaviy ta'lim usullari.

Kirish.

Zamonaviy jamiyatda har bir insonning kasbiy yo'nalishini erta yoshda aniqlash va rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun kasbiy faoliyatga qiziqishni shakllantirish, ularning qobiliyat va istaklarini aniqlash kelajakdagi muvaffaqiyatli kasb tanlashning muhim asosidir. Bolalik davrida bolalar dunyoni o'rganish bilan birga o'zlariga ma'qul keladigan sohalarni aniqlashga harakat qiladilar. Shu bois, boshlang'ich ta'lim muassasalarida o'quvchilarning kasbiy faoliyatini o'rganish va yo'naltirish tizimli ravishda amalga oshirilishi zarur. Kasbiy faoliyatni o'rganish jarayoni bolalarning qiziqishlari, shaxsiy xususiyatlari va ijtimoiy muhit ta'siri bilan chambarchas bog'liqdir. Ota-ona, o'qituvchi va maktab jamoasining bu jarayondagi roli katta bo'lib, ular bolalarning kasbiy qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirishda asosiy yordamchi hisoblanadi.

Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik va psixologik usullar yordamida o'quvchilarning qobiliyatlarini aniqlash, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash kasbiy yo'nalishni to'g'ri tanlashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kasbiy faoliyatini o'rganishning nazariy va amaliy jihatlari, ularning qobiliyat va qiziqishlarini aniqlash usullari hamda ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan pedagogik tavsiyalar tahlil qilinadi. Maqola maqsadi – boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbiy faoliyatga yo'naltirishning samarali yo'llarini aniqlash va ularni amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini o'rganishdir.

Asosiy qism.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kasbiy faoliyatini o'rganish zamonaviy ta'lim tizimida muhim o'rin tutadi. Bolalar ushbu davrda turli kasblar, faoliyat turlari bilan tanishib, o'zlarining qiziqishlari va qobiliyatlarini kashf etadilar. Shu sababli, ularni kasbiy faoliyatga yo'naltirishda sistemali yondashuv zarur bo'ladi. Bu jarayonda pedagoglar, ota-onalar va maktab jamoasi hamkorligining roli juda katta.

Birinchi, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kasbiy qiziqishlarini aniqlash uchun maxsus diagnostik metodlar va testlar qo'llaniladi. Masalan, psixologik testlar, intervyular, o'yinlar va kuzatuvlar orqali bolalarning qiziqish va qobiliyatlari aniqlanadi. Bu usullar bolalarning shaxsiy xususiyatlari, mehnatga bo'lgan munosabati va ular tanlagan kasbga bo'lgan qiziqishini aniqlashda samarali hisoblanadi.

Ikkinchi, o'quvchilarning kasbiy faoliyatga qiziqishini oshirishda ta'lim muassasalari turli innovatsion pedagogik texnologiyalar va faol o'quv usullaridan foydalanadi. Masalan, loyiha asosida o'qitish, rolli o'yinlar, interaktiv mashg'ulotlar bolalarga turli kasblar haqida to'liq va aniq tasavvur beradi hamda ularning o'z kasbiga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Shu bilan birga, maktablarda tashkil etiladigan kasbiy ko'rgazmalar, ekskursiyalar va mehmon darslari ham bolalarning kasbiy bilimlarini boyitadi. Uchinchi, ota-ona va o'qituvchilar ham boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbiy faoliyatga yo'naltirishda faollik ko'rsatishi kerak. Ota-ona oilaviy muhitda bolalarning qobiliyatlari va qiziqishlarini qo'llab-quvvatlashi, ularni turli faoliyatlarga jalb qilishi muhimdir. Shu bilan birga, o'qituvchilar har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularni ijobiy rag'batlantirish va mos kasbiy yo'nalishlarga yo'naltirish chora-tadbirlarini amalga oshirishi lozim.

To'rtinchidan, boshlang'ich sinfda o'quvchilarning kasbiy faoliyatini rivojlantirish nafaqat ularning shaxsiy qobiliyatlarini ochishga, balki kelajakda jamiyatda o'z o'rnini topishga yordam beradi. Yosh avlod kasbiy qobiliyatlarini erta yoshda rivojlantirish, ularni kasb tanlashda ongli qaror qabul qilishga tayyorlaydi va shu bilan jamiyatning mehnat resurslarini samarali shakllantirishga hissa qo'shadi. Shu bois, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kasbiy faoliyatini o'rganish jarayoni murakkab, ko'p qirrali va tizimli bo'lishi lozim. Bu jarayon pedagogik va psixologik yondashuvlarni uyg'unlashtirish, zamonaviy o'quv metodlari va ota-ona hamkorligini ta'minlash orqali amalga oshiriladi. Faqat shunday yondashuv orqali bolalarning kasbiy qiziqishlari samarali ravishda aniqlanib, ularni rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Xulosa:

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kasbiy faoliyatini o'rganish ularning shaxsiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu yoshdagi bolalarning kasbiy qiziqishlari, istaklari va imkoniyatlarini aniqlash uchun zamonaviy pedagogik va psixologik metodlardan foydalanish zarur. Ota-ona, o'qituvchi va maktab jamoasining faol hamkorligi bolalarning kasbiy yo'nalishlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, innovatsion ta'lim usullari yordamida bolalarning kasbiy bilimlari va qobiliyatlarini rivojlantirish samaradorligini oshirish mumkin. Kasbiy faoliyatga erta yoshda yo'naltirilgan boshlang'ich sinf o'quvchilari kelajakda ongli va tayyor holda kasb tanlashga, jamiyatda o'z o'rnini topishga tayyor bo'ladi. Shu bois, boshlang'ich ta'lim muassasalarida kasbiy faoliyatni o'rganish tizimini takomillashtirish va amaliyotga samarali joriy etish muhim vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaev, M. (2018). Boshlang'ich ta'limda pedagogik psixologiya. Toshkent: O'zbekiston xalq ta'limi nashriyoti.
2. Islomova, S. (2020). Bolalarni kasbiy yo'naltirishning pedagogik asoslari. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
3. Karimova, N. (2019). Kasbiy faoliyatga yo'naltirish va bolalarning shaxsiy rivojlanishi. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.

4. Mamatqulov, R. (2017). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kasbiy qiziqishlari. Toshkent: Ta‘lim nashriyoti.
5. Nurmatov, B. (2021). Pedagogik diagnostika usullari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti.
6. Qodirova, L. (2016). Innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent: “Ilm ziyo” nashriyoti.
7. Raxmonov, A. (2018). Bolalarni kasbiy faoliyatga yo‘naltirish. Toshkent: “Ziyo” nashriyoti.
8. Sobirova, D. (2020). O‘qituvchi va ota-onaning kasbiy yo‘naltirishdagi roli. Toshkent: Ta‘lim vazirligi.
9. Tursunov, E. (2019). Psixologik testlar va diagnostika metodlari. Toshkent: “Sharq” nashriyoti.
10. Xolmurodov, S. (2022). Boshlang‘ich sinfda kasbiy rivojlanish. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.

O‘SMIRLIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Soyibnazarova Durdona

Termiz Davlat Universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti Amaliy psixologiya yo‘nalishi

2-kurs 223-guruh talabasi

E-mail: soyibnazarovadurdona@gmail.com

Шарафуллаева Шахло Кахрамоновна

Терду психология кафедраси стажёр уқитувчи

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘smirlik davriga xos bo‘lgan psixologik o‘zgarishlar, emotsional va ijtimoiy shakllanish jarayonlari tahlil qilinadi. O‘smirlarning ichki dunyosi, o‘ziga xos muammolari, shuningdek, bu bosqichda sodir bo‘ladigan individual va guruhiiy xatti-harakatlar ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Maqolada Zamira Nishanova va Ergash G‘oziyevning ontogenez psixologiyasi sohasidagi ishlanmalariga tayangan holda, o‘smirlik davrining murakkab psixologik manzarasi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: O‘smirlik, ontogenez, identitet, emotsional beqarorlik, ijtimoiy munosabatlar, shaxs rivojlanishi.

O‘smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab, ziddiyatli va shu bilan birga, rivojlanishga boy bosqichlardan biridir. Bu davrda bola organizmida nafaqat jismoniy, balki ruhiy va ijtimoiy o‘zgarishlar ham jadallashadi. O‘smirda o‘zini anglash, mustaqil fikrlash, atrof-muhitga va o‘z tengdoshlariga nisbatan munosabat shakllanadi. Psixologik jihatdan esa bu davrda ichki ziddiyatlar, emotsional beqarorlik, o‘zini topishga intilish kuchli bo‘ladi.

O‘smirlik davrining umumiy xususiyatlari

O‘smirlik – bu shaxs rivojlanishining o‘tish davri bo‘lib, biologik, psixologik va ijtimoiy omillar bir-biri bilan uzviy bog‘liq tarzda kechadi. Bu bosqichda bolaning fikrlash doirasi kengayadi, o‘zini anglash darajasi ortadi. Ular kattalarning fikriga tayanmay, mustaqil qaror qabul qilishga intiladilar. Ko‘pincha bu jarayon ota-ona va farzand orasidagi ziddiyatlarga sabab bo‘ladi. O‘smirlar o‘zlarini shaxs sifatida namoyon etishga harakat

qiladilar, bu esa ularda mustaqillikka intilish, tanqidiy fikrlash va ba'zan norozilik hissining kuchayishiga olib keladi.

Shaxsiy va emotsional o'zgarishlar

O'smirlilikda emotsional beqarorlik, o'zini past baholash, ichki ziddiyatlar kuchayadi. Bu davrda yoshlar o'zining qadr-qimmati, jamiyatdagi o'rni, kelajakdagi roli haqida chuqur o'ylay boshlaydilar. Do'stlik va guruhga mansublik masalasi muhim o'rin egallaydi. O'smirlar atrofdagilarning fikriga kuchli e'tibor qaratadilar, ba'zida bu ularning ichki dunyosida shubha, xavotir va tushkunlikni kuchaytiradi. Shaxsiylik hissi va mustaqillikka bo'lgan ehtiyoj ularni o'z xatti-harakatlariga baho berishga, o'zini boshqalardan ajratishga undaydi.

Ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlash zarurati

O'smirlar ijtimoiy tarmoqlarda o'zini boshqalar bilan solishtirish orqali psixologik bosim ostida qolishlari mumkin. Bunday holatlar ularda past baholanish, xavotir, hattoki depressiya alomatlariga olib keladi. Shu sababli oilaviy munosabatlarda iliqlik, tushunish va emotsional qo'llab-quvvatlash juda muhim. M. Zokirova ta'kidlaganidek, "o'smirlarning ruhiy salomatligi ularni tushunadigan, tinglaydigan va hissiy jihatdan yordamlasha oladigan kattalar mavjudligiga bog'liq"

O'smirlarning shaxsiy va axloqiy rivojlanishi

O'smirlilik – bu faqat biologik emas, balki axloqiy va shaxsiy o'sish bosqichidir. Bu davrda yoshlar o'zlarini jamiyat a'zosi sifatida anglay boshlaydilar, axloqiy qarorlar qabul qilishda mustaqillik izlaydilar. G'. Yo'ldoshev fikricha, "o'smir o'zining jamiyatdagi rolini tushuna boshlaydi, bu esa axloqiy mas'uliyatni hosil qiladi" Ushbu bosqichda shaxsiy qadriyatlar shakllana boshlaydi. Maktabda beriladigan tarbiya, sinfdoshlar o'rtasidagi munosabatlar, oila va muhitdagi axloqiy mezonlar o'smirlarga bevosita ta'sir qiladi. Bu davrda tarbiya jarayoni faqat nazorat emas, balki ishonch, hurmat va qo'llab-quvvatlashga asoslanishi zarur.

Xulosa

O'smirlilik davri – inson hayotidagi eng mas'uliyatli va muhim bosqichlardan biri. Bu davrda yuzaga keladigan psixologik o'zgarishlar, ijtimoiy muammolar va axloqiy qiyinchiliklar yoshlarning shaxs sifatida shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ota-ona, o'qituvchi va psixologlarning birgalikdagi harakati orqali sog'lom psixikaga ega, ijtimoiy faol va axloqan barqaror avlodni voyaga yetkazish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nishanova Z. Ontogenez psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
2. G'oziyev E. Ontogenez psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Zokirova M. Psixologiya asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
4. Yo'ldoshev G'. Yosh davrlar psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2016.
5. G'aniyev A. M. Pedagogik psixologiya. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.

ORNITONIMLARNING LINGVOMADANIY HUSUSIYATI

Yigitaliyeva Muxlisa Ahadovna

Qo'qon davlat universitetida o'qituvchi

Vohidova Azizahon Sherzodbek qizi

Qo'qon davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada ornitonimlarning (qush nomlarining) lingvomadaniy hususiyatlari tizimli-lingvokulturologik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda turkiy tillar, xususan o'zbek tilidagi ornitonimlarning etimologik kelib chiqishi, semantik qatlamlari hamda ularning xalq og'zaki ijodi, urf-odat va marosimlardagi ramziy ma'nolari o'rganiladi. Muallif qush obrazlarining mifopoetik modellanishi, tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlarni aks ettirishdagi kommunikativ-pragmatik vazifalarini aniqlaydi. Material sifatida dialektal ma'lumotlar, tarixiy yozma yodgorliklar hamda zamonaviy badiiy matnlar korpusidan foydalanilib, leksik-semantik va diskursiv tahlil usullari qo'llanildi. Natijalar qush nomlari orqali shakllangan konseptlarning milliy dunyoqarashni ifodalashdagi o'rnini ko'rsatib, lingvomadaniy birlik sifatida ornitonimlarning semantik-madaniy ko'lamini kengaytiradi. Maqola xulosalari ornitonimika, etnolinguistika va tarjimashunoslik sohalarida nazariy hamda amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ornitonim, lingvomadaniyat, etnolinguistika, semantika, mifopoetika

Kirish.

Til har bir xalqning madaniyati, tafakkuri va tarixiy xotirasini aks ettiruvchi asosiy vositadir. Tilda mavjud bo'lgan har bir so'z, ayniqsa, tabiat hodisalari va jonli mavjudotlarga oid atamalar, shu xalqning dunyoqarashi, urf-odatlari, turmush tarzi hamda e'tiqodlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shunday leksik birliklardan biri bu — ornitonimlar, ya'ni qush nomlari hisoblanadi. Ornitonimlar nafaqat ornitologik ma'lumot manbai, balki xalqning madaniy tafakkurini ochib beruvchi muhim lingvomadaniy birlikdir. Qushlar obraziga bo'lgan e'tibor qadimdan turkiy xalqlarning og'zaki ijodi, afsona va ertaklarida,

marosimlarda va ramziy til ifodalarida keng namoyon bo'lgan. Ayniqsa, o'zbek tilida uchraydigan qush nomlari ko'p hollarda inson xarakteri, hayotiy holatlar yoki ijtimoiy munosabatlarni ifodalashda tashbeh va metafora sifatida xizmat qiladi. Masalan, "lochin" jasorat timsoli bo'lsa, "kaptar" poklik va sadoqat ramzi sifatida qaraladi. Mazkur maqolada o'zbek tilidagi ornitonimlarning lingvomadaniy hususiyatlari tahlil qilinadi. Unda qush nomlarining etimologik ildizlari, semantik xususiyatlari, madaniy va ramziy yuklamalari, shuningdek, badiiy hamda og'zaki matnlarda qo'llanish xususiyatlari yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi — ornitonimlarning til va madaniyat o'zaro munosabatidagi o'rnini aniqlash hamda ularni lingvomadaniy birlik sifatida baholashdan iborat.

Asosiy qism.

Ornitonimlar – bu tilda qushlarga berilgan nomlar bo'lib, ular faqat biologik tasnif emas, balki xalqning madaniy-ma'naviy hayotida ham muhim o'rin egallaydi. O'zbek tilida uchraydigan qush nomlari turli lingvistik qatlamlarga mansub bo'lib, ularning tarkibida qadimgi turkiy, fors-tojik, arab va rus tillaridan kirib kelgan birliklar mavjud. Bu esa o'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti, madaniy aloqalari va xalq tafakkurining shakllanish bosqichlari haqida muhim ma'lumotlar beradi. Ornitonimlarning lingvomadaniy hususiyatlarini tahlil qilishda, avvalo, ularning etimologik kelib chiqishiga e'tibor qaratish lozim. Masalan, "lochin", "burgut", "kaptar", "kuzgun", "laylak" kabi qush nomlari qadimgi turkiy manbalarda ham uchrab, bugungi kungacha o'z semantik yukini yo'qotmagan. "Lochin" va "burgut" kabi qush nomlari ko'pincha jasorat, kuch-qudrat timsollari sifatida ishlatilgan. Ular turkiy xalqlarning urushchi, jangovar ruhini ifodalovchi ramziy obrazlar sifatida folklor va adabiyotda keng qo'llaniladi. Ornitonimlar mifopoetik va ramziy ma'no kasb etishi bilan ham ajralib turadi. Ko'plab qushlar xalq e'tiqodida muayyan ruhiy holat, bashorat, yaxshi-yomon belgilar bilan bog'langan. Masalan, laylaklar kelishi bahor va farovonlik alomati sifatida talqin qilinsa, kuzgun ko'pincha yo'qotish, qayg'u ramzi sifatida tushunilgan. Shu nuqtai nazardan, qush nomlari xalq tafakkuridagi konseptual birliklarni ifodalaydi. Bunday birliklar orqali xalq o'z qarashlarini, tabiatga munosabatini, hayotiy tajribalarini til orqali ifoda etgan. Bundan tashqari, ornitonimlar frazeologizmlar tarkibida ham faol ishtirok etadi. Masalan, "kaptardek oppoq", "burgutdek chaqqon", "laylak bo'lib qolmoq" kabi iboralar orqali inson fazilatlarini, holatlarini yoki harakatlari ifodalanadi. Bu kabi ifodalar qushlarga xos xususiyatlar asosida metaforik tarzda shakllanib, tilda obrazlilik va emotsional ifoda kuchini oshiradi.

O‘zbek adabiyotida ham ornitonimlarga keng o‘rin berilgan. Alisher Navoiy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi ijodkorlar o‘z asarlarida qushlar orqali inson qalbidagi tuyg‘ular, orzu-umidlar va falsafiy mushohadalarni ifodalashga erishganlar. Shu bilan birga, ornitonimlar turli toponimlar, antroponimlar va laqablar tarkibida ham uchrab, xalq tafakkurining tilga ko‘chgan namunasini tashkil etadi. Yana bir muhim jihat – ornitonimlarning bolalar folklori va ertaklardagi roli. Masalan, “Qaldirg‘och”, “Boyqush” kabi qushlar obrazida mehr-oqibat, aql-zakovat, sadoqat kabi insoniy fazilatlar talqin qilinadi. Bu esa ornitonimlarning nafaqat tilshunoslik, balki pedagogik va tarbiyaviy jihatdan ham ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi. Umuman olganda, o‘zbek tilidagi ornitonimlar xalq madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, ularning lingvomadaniy tahlili milliy tafakkur, qadriyatlar va ramzlarning til bilan uzviy bog‘liqligini ochib beradi. Bu boradagi ilmiy izlanishlar esa tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarini integratsiyalashgan holda rivojlantirish imkonini yaratadi.

Xulosa: Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, ornitonimlar — bu faqatgina qush nomlarini bildiruvchi leksik birliklar emas, balki xalqning madaniy merosi, dunyoqarashi, e‘tiqodi va estetik qarashlarini o‘zida mujassam etgan muhim lingvomadaniy birliklardir. O‘zbek tilidagi ornitonimlar orqali xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlar, badiiy-estetik didi, tabiatga bo‘lgan munosabati ifodasini topadi. Ular xalq og‘zaki ijodida, adabiyotda, frazeologiyada va kundalik nutqda faol ishlatiladi hamda turli ramziy ma‘nolar bilan boyitilgan. Ornitonimlarning etimologik, semantik va madaniy tahlili til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib berishga xizmat qiladi. Shu bois, bu kabi birliklarni lingvomadaniy yondashuv asosida o‘rganish — nafaqat tilshunoslik, balki etnolinguistika, madaniyatshunoslik va tarjimashunoslik sohalar uchun ham dolzarb ilmiy yo‘nalish hisoblanadi. Kelgusida ornitonimlarning boshqa tillardagi ekvivalentlari bilan qiyosiy tahlili, ularning tarjima jarayonidagi xususiyatlari hamda madaniyatlararo kommunikatsiyadagi roli yanada chuqurroq o‘rganilishi zarur. Bu esa milliy madaniyatimizni chuqurroq anglashga va til boyligini ilmiy asosda tadqiq etishga katta hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedova G. “O‘zbek tilidagi ornitonimlarning leksik-semantik tahlili” // Filologiya masalalari. – Toshkent, 2021. – №2. – B. 45–50.

2. Jo‘rayev R. “Til va madaniyat: lingvomadaniyatshunoslik asoslari” – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 240 b.
3. Nazarov M. “O‘zbek tilidagi hayvonot olamiga oid leksikaning lingvokulturologik tahlili” // Til va adabiyot ta’limi. – 2020. – №4. – B. 25–30.
4. Xo‘jayeva D. “Qush obrazining o‘zbek xalq ertaklaridagi talqini” // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2019. – №3. – B. 60–64.
5. Allamberganova G. “O‘zbek xalq tilida ornitonimlarning semantik xususiyatlari” // Til va madaniyat aloqalari. – Samarqand, 2020. – B. 85–89.
6. Xojimatov U. “Lingvokulturologiya asoslari” – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2015. – 196 b.

ОСОБЕННОСТИ ДИАГНОСТИКИ И ЛЕЧЕНИЕ ПАРАДОКСАЛЬНОГО ДВИЖЕНИЯ ГОЛОСОВЫХ СКЛАДКОВ У ЖЕНЩИН

Ганиев Дастонбек Нурали угли, Назаров Сохиб Улмас угли, Каршиев Бобир
Ботир угли

*Клин. ординаторы кафедры Оториноларингологии №1, Самаркандского
государственного медицинского университета, Самарканд, Узбекистан*

Аннотация. Парадоксальное движение голосовых складок, чаще наблюдается у женщин и может быть связано с анатомическими особенностями, гормональными изменениями или психосоциальными факторами при котором отмечается нарушение координации голоса и дыхания. В данной работе рассматриваются особенности диагностики, дифференциальной диагностики парадоксального движения голосовых складок. Особое внимание уделено подходом к лечению, включая голосовую терапию, медикаментозное вмешательство и психотерапию.

Ключевые слова: парадоксальное движение голосовых складок, женщины, диагностика, психосоциальные факторы.

Abstract. Paradoxical movement of the vocal folds, more often observed in women and can be associated with anatomical features, hormonal changes or psychosocial factors, in which there is a violation of the coordination of voice and breathing. This paper examines the features of diagnostics, differential diagnostics of paradoxical movement of the vocal folds. Particular attention is paid to the approach to treatment, including voice therapy, drug intervention and psychotherapy.

Key words: paradoxical movement of the vocal folds, women, diagnostics, psychosocial factors.

Введение. Дисфункция голосовых складок (ДГС), известно ещё как парадоксальное движения голосовых складок, характеризуется эпизодами хаотичных сокращений голосовых складок при дыхательных фазах (особенно при инспираторной фазе) [5].

Происходит непреднамеренная парадоксальная аддукция голосовых связок, которая может вызывать острые приступы инспираторной одышки, кашля, охриплости

голоса, не поддающиеся обычной терапии Астмы [4]. Этиология ДГС является сложной и часто многофакторной. Важной патофизиологией является гиперфункция гортанного рефлекса при пост назальном синдроме, после физической нагрузки, гастроэзофагеального рефлюкса, ларингофарингеального рефлюкса и психологических состояний. Ларингоскопическая и ларингстобоскопическая демонстрация парадоксального движения во время хрипов или стридоров считается золотым стандартом диагностики [2].

Распространённость заболевания среди населения составляет около 2,8%, а также Американские ученые указали что по данным справочной службы заболеваемость данной патологией достигает до 10 % [1].

По данным К.Kenn, R.Balkissoon (2011.g) только около 5-10% всех пациентов, страдающих астмой, встречается данная патология и отмечается в практике большая трата денежных средств в лечении таких больных из-за ошибочного диагноза астмы [5]. Пациенты часто ищут помощи у пульмонологов, принимая большие дозы системных гормонов, бронходилататоров, в плот до госпитализации и даже в некоторых случаях производят им трахеотомию или интубацию [3]. Не удачное лечение часто приводит к усилению медикаментозной терапии, включая пероральные кортикостероиды, которые часто вызывают критические побочные эффекты, в том числе задержка жидкости, прыщи, недостаточность надпочечников, увеличение веса, потеря плотности кости, катаракта и другие особенности синдрома кушингоида, которые могут быть весьма неприятными.

При оценке этих пациентов существует широкий дифференциальный диагноз, который поможет доктору поставить правильный диагноз и вести больного по протоколу. Парадоксальное нарушение движения голосовых связок, более широко известное как дисфункция голосовых связок (ДГС), может имитировать астму и получает все большее признание в качестве частой причины респираторных симптомов у детей и у взрослых, у которых часто диагностируется рефрактерная стероидная астма. При ДГС обструкция на уровне гортани в отличие от астмы и у этих лиц отсутствуют признаки гипоксемии в крови. В этой статье будет рассмотрено наше современное понимание эпидемиологии, патогенеза, диагностики и лечения ДГС.

Цель. Своевременно выявить эндоларингоскопических и спирометрических изменений при парадоксальном движении голосовых движениях.

Методы. С 2022 года нами на амбулаторном приеме были диагностированы парадоксальная движения голосовых связок у 11 больных. Ретроспективная исследования серии случаев показали нам что, эндовидеоларингоскопические изменения в гортани и данные спирометрии облегчают распознать дисфункцию голосовых складок при тщательном сборе анамнеза. Произведена дифференциальная диагностика с ларингоспазмом. Жалобы всех пациентов были аналогичными: инспираторная одышка, стридор, охриплость голоса, кашель которые наблюдались той или иной степени слабее вне приступов, чувство стеснения в горле, затрудненный вдох, внезапные эпизоды одышки, приступы паники, нечувствительность к бронходилататорам и кортикостероидам.

По оценки субъективной оценки голоса по CAPE-V у пациентов показало в среднем около 3 баллов, что охарактеризует охриплость голоса. Во время приступов нами выявлены следующие фиброларингоскопические изменения: имеется гиперардукция передней части голосовых складок и треугольная не смыкание задней части, так же при вдохе наблюдались неполная раскрытие голосовых складок. Однако через несколько таких атипичных фаз наблюдались нормальная размыкание и смыкания голосовых складок.

Важным методом диагностики данной патологии, так же является спирометрия. Это исследование используется для выявления лиц с астмой или другими легочными нарушениями. При дисфункции голосовых складок наблюдается признаки переменной вне грудной обструкции, приводит к избирательному ограничению объемной скорости потока воздуха во время вдоха. Во время форсированного вдоха она смещается внутрь, что приводит к снижению инспираторного потока и появлению плато. Во время форсированного выдоха голосовые складки смещаются в сторону, поэтому экспираторная кривая не изменена. Наличие такой обструкции можно легко предположить, когда меняются отношения между объемными скоростями середины потока: скорость вдоха заметно снижается по сравнению со скоростью выдоха ($MIP\ 50\% < MEF\ 50\%$) (1-рис.)

Результаты. Все пациенты были женского пола старше 49 лет. Жалобы пациентов напомнили астму: одышка, нехватка воздуха, стридор, изменения качества голоса. Причиной дисфункция голосовых складок у 3-пациентов было связаны с психоэмоциональными стрессами, 4- пациентов выявлено рефлюксная болезнь, 1-

– 17-sentabrda Qo‘qonning Ko‘mir bozori mahallasida tug‘ilganman. Otam temirchi edi”¹. Yozuvchini adabiyot ixlosmandlari “Qishloq hukm ostida” nomli ilk kitobi orqali tanigan. Shundan keyin uning “O‘g‘ri”, “Ming bir jon” kabi bir qancha hikoyalari, “Muhabbat”, “Sinchalak” kabi qissalari va “Sarob”, “Qo‘shchinor chiroqlari” singari romanlari kitobxonlar qo‘liga yetib bordi. Abdulla Qahhorning boshqa yozuvchilardan farqli tomoni shundaki, uning so‘z qo‘llash mahorati kuchli bo‘lgan. Shu haqidagi G‘afur G‘ulomning quyidagi jumalari ham so‘zimizning isbotidir: “Abdulla boshqalar bir sahifada aytadigan gapini bitta gapda aytadi-qo‘yadi”². U har bir asarida ona tilimizning cheksiz imkoniyatlarini yorqin ko‘rsatib bera olgan. Va shu orqali tilimiz rivojiga ulkan hissa qo‘shgan yozuvchidir. Abdulla Qahhor tabiatan vazmin, kamgap inson bo‘lgan. Rus adibi K.Simonov u haqida shunday degan: “Qahhor uyatchan edi. U hech qachon suhbatdoshiga o‘zining zakiyligini ko‘rsatishga oshiqmas, buni asosan, adabiyot uchun, oq qog‘oz ila yolg‘iz qoladigan pallasi uchun asrar edi. Qahhor o‘zining qadrini bilardi, ayni chog‘da, uyatchan, vazmin va kamtarligicha qolardi”³. Abdulla Qahhorning “Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o‘tin yorishga sarflash kerak emas” degan so‘zlarining o‘ziyiq uning mahoratli yozuvchi va so‘z ustasi ekanligidan dalolat beradi.

Abdulla Qahhorning hikoyalariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularning hech biri bir-biriga o‘xshamaganligining guvohi bo‘lamiz. Masalan, “O‘g‘ri” hikoyasida yuqori mansab egalarining o‘zgalar baxtsizligini o‘zining tirikchiligiga aylantirgani haqida bo‘lsa, “Daxshat” hikoyasida o‘z erki uchun har qanday qo‘rquvni yenga oladigan, dovyurak ayol siymosi gavdalanganining guvohi bo‘lamiz. Yozuvchining “Ming bir jon” hikoyasida esa o‘zbek ayollarining sabr-qanoati haqida hikoya qiladi. Bu hikoyada ming bir jon egasi – xasta ayol Masturaning kuchli karakteri, matonati yoritilgan⁴. Bundan tashqari, yozuvchi hikoyalarining psixolingvistikasi ham bir-biridan farq qilib turadi. Psixolingvistika fan sifatida matndagi hissiyotlilik (his-tuyg‘ularni yetkazish qobiliyati) xususiyatiga alohida

¹ Sariyev Sh. Adabiyot: Mukammal qo‘llanma (eng yangi nashr). – Toshkent: Regbooks, 2020 – 334-bet.

² Said Ahmad. “Yo‘qotganlarim va topganlarim”. – Toshkent: Sano-standart.2019.

³ Abdulla Qahhor. “Muhabbat” qissa. – Toshkent: Oltin Qalam. 2023.

⁴ [https:// mutolaa.com](https://mutolaa.com).

e'tibor qaratadi⁵. Matnni psixolingvistik tahlil qilish badiiy matnning mavzulari, g'oyalari va yozuv uslubi haqida tushunchaga ega bo'lish uchun foydali vosita bo'lishi mumkin⁶.

Ishonch! Umid! Sevgi! Sadoqat! Sabr-qanoat! Bir qarashda oddiygina bo'lib eshitilayotgan bu so'zlar zamirida ulkan kuch yashiringan. Bu so'zlar insonni yashashga, hayoting ulug' ne'mat ekanligini anglashga undaydi. Hikoyamiz qahramoni, o'n yildan buyon dard bilan kurashib kelayotgan Masturaga bu so'zlar malham bo'la oldi va o'z kuchini ko'rsatdi. Hikoyada Mastura sap-sariq teri-yu suyakdan iborat bo'lgan murdaga o'xshab qolgani tasvirlangan. Ming bir jon egasi Mastura bu har safar endi tugaydi, yo'q bo'ladi degan hayolga borilganda qayta-qayta o'zini qo'lga olib matonat ko'rsatuvchi ayoldir⁷. Chetdan qaragan inson Masturaning bu holatini ko'rib tirik murda ko'rgandek qo'rqib ketar, unga rahmi kelar va uning bu holatini ko'rib sog'ayib ketishiga umid umuman yo'qligiga amin bo'lardi. Mastura bo'lsa hech qachon bu holatidan nolimasdi. Har kuni yangi tongni qarshilayotganiga, yuragi urib turganiga, nafas olib turganiga shukronalar aytardi. Unda hayotga, yashashga bo'lgan qiziqish shu qadar kuchli ediki, bu kuch uning sog'ayishi uchun yordam bera oldi. Masturaning hayotga bo'lgan qiziqishini, sog'ayib ketishiga bo'lgan ishonchini hikoyadan olingan quyidagi so'zlar orqali bo'lib olishimiz mumkin:

“...Men hech qachon o'lim kutgan emasman, kutmayman ham! U yog'ini surishtirsangiz, men odam bolasining o'lim kutishiga, ya'ni dunyodan umid uzishiga ishonmayman. Hatto tildan qolgan kasalning rozilik tilashib qaragani ham dunyodan umid uzgani emas, balki “rozilik tilashgani hali erta” dermikin degan umid bilan qaragani deb bilaman”⁸. Bu parcha orqali Masturaning kasal bo'lishiga qaramay kuchli ruhiy holati aks etganining guvohi bo'lamiz. Uning bu gaplarida umuman xastalik alomatlari nolish, dard alomatlari sezilmasdi. Aksincha, uning ohangidan quvonch, baxt, “hech qachon o'lim kutgan emasman, kutmayman ham” so'zlari orqali esa ishonch alomatlari borligini sezishimiz mumkin. Masturaning o'ziga bo'lgan ishonchi, hayotga, sog'ayib ketishiga bo'lgan umidi, har qanday sinovlarga bardosh bera oluvchi sabr-qanoati ana shunday kuchli edi.

⁵ Abuzaloqova M.K, Avliyoqulova L.B “Badiiy matnning psixolingvistik tahlili”. Buxdu.uz

⁶ Abulzaloqova M.K, Avliyoqulova L.B “Badiiy matnning psixolingvistik tahlili”. Buxdu.uz

⁷ D.U.Rasulova, X.R.Ergasheva. “Abdulla Qahhorning “Ming bir jon” va O.Genrining “So'nggi yaproq” hikoyalari qiyosiy tahlili. Cyberleninka.ru.

⁸ Abdulla Qahhor. Tanlangan hikoyalar. – Toshkent:O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013 – 98-bet.

Inson psixologiyasi magnitga o'xshaydi. Qila olmayman, qo'limdan kelmaydi deydi insonlar juratsizligi tufayli, o'ziga bo'lgan ishonchi pastligi tufayli hech narsa qila olmaydi. Qancha ko'p qiyinchiliklar kelsa ham ularni sabr-bardoshi orqali yengib o'tadigan va ko'zlagan maqsadiga erishishga umidi bor insonlar esa qiyinchiliklari har qancha katta bo'lmasin uni yengib o'tadi va ko'zlagan maqsadiga, albatta, yetadi. Hikoyamiz qahramoni Mastura ham aynan qo'limdan kelmaydi emas, balki men qila olaman, bu dard men uchun berilgan bir sinov uni yengib o'ta olaman deya o'ziga o'zi dalda berdi va hikoya so'ngida sog'ayib ketdi. Kasalxonadagi Mirrahimov, Hoji aka kabi boshqa bemorlar ham uning sog'ayishiga umid yo'q deb o'ylardi. Chunki ular aynan o'ziga kelgan kichkina dardni ham ulkan sanab, hayotidan nolir edi. Masturani va uning sadoqatli turmush o'rtog'ini ko'rib o'z hayotiga shukronalar keltirdi va ularning bir-biriga bo'lgan sof muhabbatiga, Akramjonning sabr-bardoshiga, vafosiga takror-takror tahsinlar o'qidi. Bunga quyidagi hikoyadan olingan Mirrahimov va Hoji aka suhbatini orqali guvoh bo'lishimiz mumkin:

- Bu xotinning joni bitta emas, ming bitta! – dedi Hoji aka, - hozir tugab qolgan shamday lipillab yonayotgan joni basharti so'ngan taqdirda ham, qolgan mingtasini yoqib keyin so'nadi. Mana shu ishonch Masturaga o'limni yo'latmaydi.

Mirrahimov uzoq jim qolgandan keyin yana birdan:

- Eri-chi, eri? - dedi, - bu yigitning ham raftoridan, yigitlik umri ming bitta-yu, shundan bittaginasini Masturaga qurbon qilyapti"⁹.

Kasal kasal emas, kasalni boqqan kasal¹⁰ degan gap ham rost aslida. Chunki, kasalga qarayotgan inson har tomonlama ham ruhiy jihatdan, ham ma'naviy jihatdan sog'lom bo'lishi kerak. Akramjon esa Mastura uchun ana shunday inson edi. Haqiqatdan ham Akramjonning vafosiga tahsinlar o'qisa arziydi. Chunki u Masturani o'g'ir ahvolda tashlab ketmadi. Bundan tashqari Akramjonning ham sabr-bardoshi huddi Masturaniki kabi metindek mustahkam va kuchli edi. Faqatgina Mastura emas, balki Akramjon ham bu dard bilan o'n yildan buyon kurashib kelayotgan edi. Akramjonning katta-katta yonib turgan ko'zlari uning ham ruhiyati kuchliligidan dalolat berardi. Chunki, bu dardning sovuq nomi har qanday kuchli, sog'lom insonni ham zaif holatga keltirishi mumkin. Shunga qaramasdan Akramjonning ko'zlari yonib turar edi. Akramjon ruhiyatining kuchliligiga ham Masturaning ta'siri katta. Sababi, Mastura hech qachon umidini so'ndirmadi. Faqat oldinga intildi,

⁹ Abdulla Qahhor. Tanlangan hikoyalar. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013 – 101-bet.

¹⁰ O'zbek xalq maqoli.

kurashishdan to'xtamadi. Shu orqali ular bir-biridan kuch oldi, bir-biriga dalda bo'ldi va qiyinchilikni yengib o'tdi. Akramjon sadoqati chin insoniylik qanday bo'lishini, oila muqaddas tushuncha ekanligini isbotladi. Masturaning sog'ayib ketishiga bir tomondan Akramjon ham sababchi bo'ldi. Insonning sabr-bardoshi qanchalik kuchli bo'lmasin, uning yonida dalda berib turuvchi, umid bag'ishlab turuvchi insoni bo'lmasa sinovlar oldida zaiflashadi va yengiladi. Akramjonning ham sabr-toqati, ishonchi, ko'zdagi umidi Masturaga kuch bag'ishladi. Akramjon Masturaga ana shunday sadoqatli, vafoli umr yo'ldosh bo'la oldi. Hikoya so'ngida Akramjon sabr-bardoshiga yarasha javob oldi. Hayot insonni doimo qiyinchiliklar bilan sinaydi. Ana shu qiyinchiliklar inson qiyofasini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. Lekin hech qachon insonning ko'zlari o'zgarmaydi. Ular hech qachon haqiqatni aytishdan charchamaydi. Hikoya so'ngida Mirzacho'ldagi Akramjon va Mastura bilan bo'lgan tasodifiy uchrashuvda ham Mirrahimov Masturani chaqnab turgan ko'zlari orqali tanidi. Insonning qiyofasi o'zgarsa ham ko'zlari hech qachon o'zgarmligini mashhur yozuvchi Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasi misolida ham ko'rishimiz mumkin. Unda otanasining yuzini yerga qaratib, urushdan qochgan Tursunboy qamishzorlar ichida jon saqlaydi. Onasi vafotidan so'ng hech kim undan xabar olmay qo'yadi. Oradan ancha vaqt o'tib Tursunboyning otasi Ikromjon qamishzorda yurganida aft-angori tanib bo'lmas darajada kir, soch-soqoli o'sib ketgan Tursunboyni aynan ko'zlaridan taniydi. Hikoyada bundan tashqari Mirrahimov, Hoji aka, hamshira ayol kabi personajlar ham bor. Ularga to'xtaladigan bo'lsak, ularda ham o'ziga yarasha dard, o'ziga yarasha qiyinchilik va sinov bor edi. Mirrahimov hikoyada jikkakina, shunday bo'lsa-da, tovushi juda yo'g'on kishi sifatida tasvirlanadi. Kasalxonaga yaqinda tushgan bo'lishiga qaramay ich-ichidan hech qayoqqa sig'mas, bu holatidan nolir edi. Bu holatini ko'rgan hamshira dardni faqatgina sabr-bardosh yengishini aytardi. Va Masturani ularga misol tariqasida keltirib o'tadi. Mastura Mirrahimovning sog'ayishiga bir dalda bo'la oldi. Masturani ko'rganidan keyin, eng avvalo, sabr-qanoatli bo'lishni, har kuni yangi tongni qarshilayotganiga shukronalar aytishni o'rgandi. Inson o'zida bor narsaga shukronalar keltirmaydi degan jummlalar ham rost. Masturaning ahvoli qay darajada edi-yu, Mirrahimovniki qay darajada. Mastura o'zi yurolmaydi, o'zi turolmaydi hattoki o'ziga berilgan rizq-nasibasining totli tamini ham his qilolmaydi. Shunday bo'lishiga qaramay u o'n yil davomida bir marotaba ham noligan emas. Mirrahimov bo'lsa, Masturadan sog'lik jihatdan o'n barobar ustun edi. O'zi harakatlana oladi, o'zi ovqatlana oladi. Ammo u o'zida bor bu imkoniyatlarga Masturani ko'rganidan

keyingina shukronalik keltirdi va o'zidan uyalib ham qo'ydi. Shundan keyin u bu ayol kurashib kelayotgan dard qanday-u, menga berilgan dard qanday deya o'ziga savol berdi. Bu ayolda bor sabr-bardosh aslida hammamizda bor, lekin biz undan keragicha foydalana olmaymiz deya hayotga bo'lgan qiziqishini oshirdi, yashashga bo'lgan umidini so'ndirmadi. Mirrahimov ham o'ziga bo'lgan ishonchi, hayotga bo'lgan muhabbati tufayli dardni yengib o'tdi. Hoji aka esa dard oldida ojzlanib qoldi va uni yenga olmadi. Aksincha, bu dard Hoji akani yengdi. Chunki, u Masturani birinchi marotaba ko'rganida qo'rqib, u bilan hattoki salomlashishga ham ulgurmay chiqib ketdi. Agarda Hoji aka ham Mirrahimovlar kabi Mastura bilan suhbat qurganida, boshidan o'tkazgan qiyinchiliklarini eshitganida, shunda ham taslim bo'lmaganini o'z quloqlari bilan eshitganida, balki uning ham hayotga bo'lgan qiziqishi ortarmidi. Hoji aka Masturaning ahvolini ko'rdi, ko'rdi-yu uning sog'ayib ketishiga umid yo'q deb o'yladi. Lekin Masturada faqat o'ziga yetarli ishonch emas, balki qolganlarning sog'ayib ketishi uchun yetarli bo'lgan ishonch bor edi. Hoji aka ozgina jur'atsizlik qildi. Agar mana shu jur'atsizligini yengib o'tganida u ham dard bilan kurasha olgan bo'lardi. Ba'zan insonlarning hayoti ostun-ustun bo'lib ketishiga soniyalar sababchi bo'ladi. Nafaqat Hoji aka, balki barcha insonlar ham aynan mana shu soniyalar davomida qo'rqoqlik qilmay, to'g'ri qaror qabul qila olsa, qiyinchiliklarni yengishga bo'lgan birinchi qadamni tashlagan bo'ladi. Hoji aka obrazi ham aslida tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu obraz orqali o'quvchilar jur'atsiz bo'lmaslikni, har qanday qo'rquvni yengib o'tish kerakligini o'rganishi mumkin. Hikoya boshida tilga olingan hamshira ayol ham aslida oddiy jumlani to'ldirish uchun ishlatilgan personaj emas. Aslida u hikoyaning boshlanishiga turtki bo'lgan qahramon. Agar hamshira ayol Mirrahimov, Hoji akalarni Mastura bilan tanishtirmaganda shuncha voqe bo'lmasdi. Mirrahimovning ham taqdiri balki Hoji akanikiga o'xshash bo'larmidi. Bir qarashda Mirrahimovning sog'ayib ketishiga ham aynan o'sha hamshira ayol sababchi. Ba'zan insonlarga birgina so'z kifoya qiladi. Hamshira ayolning ham birgina "dardni bardosh yegadi" degan so'zi va bemorlarga qilgan shirin muomalasi, to'g'ri ko'rsatmasi ko'plab muammoning yechimi bo'la oldi. Hikoyadagi yana bir qahramon bo'lib, u yozuvchining o'zi. Hikoya aynan yozuvchi tilidan hikoya qilinadi. Hikoyadagi Mastura obrazida hayotni sevish, uning har bir soniyasidan lazzat olib yashash tuyg'ulari singdirilgan.

Bu hikoya voqealarining bahor faslida bo'lib o'tishining o'zi bir majoziy ma'nodir. Chunki bahor fasli yangilanish, yasharish, uyg'onish faslidir. Bahor faslida barcha daraxtlar, o'simliklar hasharotlar uyg'onadi. Mastura ham bahor faslidagi yangilanishlar kabi qaytadan

hayotga qaytdi. Yozuvchi tabiat va inson orasidagi bog'liqlikni juda chiroyli asoslab bera olgan. Shundan yozuvchining so'z qo'llash mahorati yuksak darajada ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Bu hikoyadan xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, inson o'ziga berilgan har qanday mashaqqat, qiyinchilik yoki dardni faqatgina sabr-u bardoshi orqali yengib o'tadi. Bu dard va qiyinchiliklar inson uchun bir sinovdir. Yozuvchi Abdulla Qahhor bu hikoyasida Mastura orqali inson boshiga tushgan dard oldida ojizlanib qolmasligi kerakligini uqtirgan. Masturaga berilgan sinov juda og'ir edi. Bu sinovni yengib o'tishga yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, sadoqatli va vafodor turmush o'rtog'i Akramjon yordam berdi. Inson qachonki o'zini yolg'iz his qilgandagina, har qancha sabr-bardoshi kuchli bo'lsa ham barcha sinovlarga yengiladi. Akramjon esa bunday og'ir vaziyatda Masturani yolg'izlatib qo'ymadi. Shuning uchun bemalol ayta olishim mumkinki, Akramjon Mastura uchun quvvat manbayi bo'la oldi deb. Akramjon va Masturaning oila muqaddas tushuncha ekanligi, uni qadrlashi va ularning bir-biriga bo'lgan sof muhabbati hozirgi kunda yosh oilalar uchun o'rnak bo'la oladi. Yoshlar bu hikoyani o'qish va bu hikoya zamiridagi ma'noni chuqur anglash orqali qiyinchiliklarga sabrli, matonatli bo'lishni o'rganadi. Bundan tashqari Abdulla Qahhor bu hikoyasi orqali o'zbek ayollarining chidamliligini ham ko'rsatib bergan. O'zbek ayollari, ayniqsa, jahon urushi yillarida juda katta jasorat ko'rsatgan. Abdulla Qahhordan tashqari Sharof Boshbekov ham o'zining "Temir xotin" komediyasi orqali o'zbek ayollarining matonatini, sabr-bardoshini yaqqol ochib bergan.

Abdulla Qahhor mashhur hikoyanavis bo'libgina qolmay, o'tkir so'z ustasi ham edi. Uning har bir asarida so'zlar o'rinli va maqsadli qo'llanilgan. Abdulla Qahhorning hikoyalariga to'xtaladigan bo'lsak, ular o'zining sof adabiy tilda yozilganligi, o'qish uchun qulay va ixchamligi bilan har bir o'quvchiga birdek manzur bo'ladi. Abdulla Qahhorning hikoyalari qisqa, londa, sodda bo'lsa-da, uning badiiyligi, estetik qiymati yuksak darajada¹¹. Shu paytgacha hech bir yozuvchi ijodida Abdulla Qahhor qo'llagan uslub takrorlangan emas. Bu ham yozuvchining mahoratidan dalolat beradi. Yozuvchining har bir hikoyasi tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shunday qilib, o'zbek romanchiligi asoschisi Abdulla Qodiriy bo'lsa, o'zbek hikoyachiligi asoschisi Abdulla Qahhordir desak hech mubolag'a bo'lmaydi.

¹¹ Sobirjonova X. "Abdulla Qahhor asarlarida insoniy tuyg'ular ulug'lanishi" <https://zenodo.org>

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sariyev Sh. Adabiyot: Mukammal qo‘llanma (eng yangi nashr). – Toshkent: Regbooks, 2020.
2. Abdulla Qahhor. “Muhabbat” qissa. – Toshkent: Oltin Qalam, 2023.
3. Abdulla Qahhor. Tanlangan hikoyalar. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013.
4. <https://mutolaa.com>.
5. <https://cyberleninka.ru>.
6. <https://zenodo.org>
7. Said Ahmad. “Yo‘qotganlarim va topganlarim” – Toshkent: Sano-standart, 2019.
8. <https://buxdu.uz>.

OTTLARNI RIVOJLANTIRISH UCHUN IJTIMOIIY-TADBIRKORLIK MUHITINI BAHOLASH

Saidov Shoxruh Mirzo Odiljon o‘g‘li,

Qo‘qon universiteti doktoranti,

shsaidov@kokanduni.uz

Annotatsiya. Tezida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tashkilotlarida (OTT) ijtimoiy-tadbirkorlik muhitini baholashning dolzarb masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – OTTlarning ijtimoiy-tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi tashqi va ichki omillarni tahlil qilish, ularni baholashning ilmiy uslubiyatini ishlab chiqish va taklif etishdir. Ishda McKinsey matritsasi, ekspert baholash usullari, SWOT-tahlil va statistik metodlardan foydalanilgan. Natijada, OTTlarning raqobatbardoshlik darajasi va jozibadorligini aniqlash uchun integral ko‘rsatkichlar taklif etilgan, shuningdek, tadbirkorlik muhitini rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kirish. Mamlakatimizda malakali kadrlar tayyorlashda oliy ta‘lim tizimini o‘rni beqiyos hisoblanadi. Bugungi kunda ta‘lim sohasida, ayniqsa oliy ta‘lim tizimidagi islohatlar o‘z natijalarini bera boshladi. OTT larimizning jahondagi nufuzi orta boshlamoqda. Hozirgi vaqtda dunyodagi ko‘plab oliygohlar an‘anaviy universitet modelidan zamonaviy universitet modeliga o‘tib, malakali va sifatli kadrlar tayyorlash faoliyatini olib bormoqda. Shunday ekan, mamlakatimiz oliy ta‘lim muassasalari ham eski ta‘lim berish shaklidan yangi, innovatsion va zamon talablariga mos ta‘lim berishga o‘tishi dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta‘limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta‘lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” ishlab chiqildi va konsepsiyani amalga oshirish bo‘yicha yo‘l xaritalari belgilandi. Kelgusida mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ta‘minlash, ta‘lim va fan intellektual mehnatga asoslangan samarali bilim iqtisodiyotini yaratish, OTT lar ta‘lim

xizmatlari bozoridagi jozibadorligiga va bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish ushbu konsepsiyaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy-tadbirkorlikning oliy ta'lim tizimidagi ahamiyati haqidagi tadqiqotlar xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng yoritilgan. B. Klark (1998) tadbirkorlik universitetlari kontsepsiyasini ishlab chiqib, OTMlarning bozor sharoitida faoliyatini tahlil qilgan. E.V. Batovrina va A.K. Kazantseva (2020) ijtimoiy-tadbirkorlikning institutsional mexanizmlarini o'rganishga qaratilgan ishlari OTTlarning strategik rivojlanishi uchun asos bo'ldi.. Mahalliy tadqiqotlarda (Qo'qon universiteti, 2022; O'zR Oliy ta'lim vazirligi, 2021) OTTlarning innovatsion hamkorlikdagi roli va raqamli transformatsiya jarayonlari tahlil qilingan. Biroq, OTTlarda ijtimoiy-tadbirkorlik muhitini baholashning universal ko'rsatkichlari tizimi hali to'liq shakllanmaganligi aniqlangan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot quyidagi usullar asosida amalga oshirildi:

SWOT-tahlil – OTMlarning ijtimoiy-tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillarni aniqlash; **McKinsey matritsasi** – OTTlarning raqobatbardoshlik va jozibadorlik ko'rsatkichlarini baholash; **Ekspert baholash usuli** – 4 ta ekspert ishtirokida omillarning og'irlik koeffitsientlarini aniqlash; **Statistik metodlar** – Kendall konkordatsiya koeffitsienti (W) orqali ekspert baholarining izchilligini tekshirish; **Solishtirma tahlil** – Davlat OTTlarining reytingdagi holatini taqqoslash.

Tadqiqot natijalari. Tashqi omillar tahlili: Imkoniyatlar: Raqobatbardoshlikni oshirish, loyihalarga grant mablag'larini jalb qilish; Tahdidlar: Moliyalashtirishning pastligi, tadbirkorlik salohiyatining yetishmasligi.

Ichki omillar tahlili: Kuchli tomonlar: Yuqori malakali professor-o'qituvchilar, strategik rejalashtirish; Kamchiliklar: Tadqiqotlarni tijoratlashtirishning past darajasi, biznes-inkubatorlarning yo'qligi.

Ekspert baholash natijalari: Jozibadorlikka ta'sir qiluvchi asosiy omil – nufuzli firmalarda amaliyot imkoniyati (0,23 og'irlik koeffitsienti); Raqobatbardoshlik uchun asosiy omil – OTTning obro'si (0,35 koeffitsient); Integral ko'rsatkich: 0,76–1,0 oralig'idagi OTTlar “mukammal raqobatbardosh” deb baholandi.

OTT larning yanada rivojlantirishda tadbirkorlik salohiyatini mavjudligini o'rganish muhimdir. Shunday ekan, OTT larni tadbirkorlik salohiyatini ikki turga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq. Ular quyidagilar:

- OTT ning ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatining hozirgi holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar holati;

- OTT ning yashirin imkoniyatlari mavjudligini aniqlash.

Tadqiqot davomida Davlat OTT muassasalarining tadbirkorlik salohiyatini baholashda tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qiladigan bir qator omillar aniqlandi. Davlat OTT larining ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir yetuvchi tashqi muhit omillari quyidagi jadvalda keltirilgan (1. - Jadval)

1-jadval

**Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi tashqi muhit omillari
tahlili¹**

Omillar	Imkoniyatlar	Tahdidlar
1.OTM lar faoliyatini zamon talabiga mos ravishda o'zgartirish	1. Har bir OTT ni bozorning to'laqonli ishtirokchisi sifatida mavqeini yanada oshirish imkoniyatini mavjudligi. 2. OTT larda ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish orqali raqobatbardoshlik darajasini yanada oshirish. 3. OTT larda asosiy mahsulot ishlab chiqrishdan tashqari, turli xildadagi tovarlar va xizmatlarni joriy etish imkoniyalarni mavjudligi.	1. Raqobat kurashining mavjudligi 2. OTT ning tadbirkorlik salohiyatining pastligi.
2. Innovatsion rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari	1. Maqsadli milliy loyihalarni amalga oshirishda ishtirok yetish imkoniyatini mavjudligi. 2. Mintaqalardagi OTT larning ijtimoiy tadbirkorlikning ichki infratuzilmasini yanada rivojlantirish.	1. Davlat OTT larining faoliyatni moliyalashtirish va moddiy-texnik bazasini rivojlantirish. 2. Davlat OTT tadbirkorlik salohiyatini

¹ Muallif ishlanmasi

	3. Oliy ta'lim sohasida ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish mexanizmlarini joriy yetish.	rivojlantirishning samarali mexanizmining yo'qligi. 3. OTT Professor-o'qituvchilarning ijtimoiy tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishga qiziqishining past darajasi.
3. Oliy ta'lim tizimni isloh qilish	1. Grantlar mablag'larini jalb qilish orqali ijtimoiy va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish. 2. OTT lar faoliyatida loyihaga yo'naltirilgan boshqaruv yondashuvini amalga oshirish. 3. Ijtimoiy-tadbirkorlik turini yaratish orqali yangi OTT modelini o'zgartirish.	1. OTT lar faoliyatini davlat tomonidan moliyalashtirish darajasini pasaytirish. 2. Grant olishdagi qiyinchiliklar.
4. Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy siyosat	Mintaqadagi mavjud bo'lgan ijtimoiy muammolardagi OTT ning ishtirok etishi.	OTT larda ijtimoiy tadbirkorlik salohiyatini pastligi, tashqi va ichki muhit o'rtasidagi zarur munosabatlarni bog'laydigan tizimning yo'qligi.

Tadqiqot davomida davlat OTT larida ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir etuvchi ichki omillar ham o'rganildi (2. - Jadval).

2-jadval.

Davlat OTM lari ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi ichki muhitning omillarini tahlili²

Omillar	Kuchli tomonlar	Kamchiliklar
----------------	------------------------	---------------------

² Muallif ishlanmasi

1. OTT ning ilmiy faoliyati	1. Ilmiy maktablarning mavjudligi	1. Mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalarining yetarli darajada bajarilmaganligi. 2. OTT olimlarining ishlanmalarini tijoratlashtirishning past darajasi.
2. Ijtimoiy tadbirkorlik faoliyati	Ijtimoiy startaplarni amalga oshirish nuqtai nazaridan istiqbolli ishlanmalar va asoslarning mavjudligi.	1. Tijoratlashtirishning samarali mexanizmi yo'qigi 2. Innovatsion korxonalar, biznes-inkubatorlarning kamligi.
3. Kadrlar	Professor-o'qituvchilarning yuqori malaka darajasi	Professor-o'qituvchilarning ning o'rtacha yoshi yuqoriligi.
4. Ta'lim faoliyati	Ta'lim dasturlarini tayyorlash uchun ko'p bosqichli tuzilmaning mavjudligi: o'rta kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keying ta'lim	Tadbirkorlik va biznes bo'yicha alohida ta'lim dasturlari yo'lga qo'yilmaganligi.
5. Axborot ta'minoti	O'quv jarayonining asosiy axborot ehtiyojlarini ta'minlash.	OTTning tarkibiy bo'linmalari o'rtasida ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil yetish va amalga oshirish bo'yicha axborot almashinuvining yo'qligi.

6. OTT larni boshqarish tizimi	1. OTT lar faoliyatini yillik strategik rejalashtirish asosida amalga oshiriladi. 2. OTT larda rivojlanish dasturlari amalga oshirilmoqda.	Rivojlanish dasturida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq sohalar kamligi.
8. Moliyaviy xavfsizlik	Ta'lim faoliyatini davlat tomonidan moliyalashtirishning mavjudligi.	1. Daromadlar tarkibida biznes daromadlarining kichik ulushi. 2. Grantlar orqali mablag'lar ko'laminin pastligi

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, davlat OTT larida ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda ularning kuchli tomonlaridan unumli foydalanish, ya'ni OTT ichki imkoniyatlari bo'lgan resurslarni tadbirkorlik uchun to'liq safarbar etishi, zaif tomonlarini o'z vaqtida bartaraf yetish choralari ko'rishi, yuzaga keladigan tahdidlardan kelib chiqadigan xavflarni kamaytirishi, OTT da ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini samarali amalga oshirishga imkon beradigan ichki salohiyatini yanda rivojlantirishi maqsadga muvofiq. Umuman olganda, yangi rivojlanish va boshqaruv modeli asosida qurilgan OTT tadbirkorlik salohiyatini birlashtirishdan ijobiy sinergetik ta'sir olish uchun zarur shart-sharoitlar mavjudligini va bunda asosan startap loyiha va g'oyalarni ishlab chiqishi hamda uni amalga oshirish imkoniyati vujudga keladi.

Yuqoridagi fikrlardan shuni xulosa qilish mumkinki, OTT lar o'zining mavjud ichki imkoniyatlarini baholashi va ijtimoiy tadbirkorlik faoliyati amalga oshirishida foydalanilmagan ichki imkoniyatini ishga solishi zarur. Bugungi kunda aksariyat OTT lar o'zining ichki imkoniyatlari va salohiyatidan to'liq foydalanilmayapti. Bu albatta, OTT larda tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishiga salbiy ta'sir etmoqda. Shu bilan bir qatorda, tadbirkorlik muhiti elementlari va OTTdagi ijtimoiy tadbirkorlik faoliyati o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjudligiga ishonch hosil qilish imkonini berdi, bu tadbirkorlik salohiyatining elementlarini mustahkamlash va rivojlantirish ijtimoiy tadbirkorlik jarayonlarining samarali oqimining asosi ekanligidan dalolat beradi.

Shuni ta'kidlab o'tish zarurki, mamlakatimizda o'zining ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanib kelayotgan OTT lar ham mavjud bo'lib, ularning faoliyati natijalarini milliy reyting tizimida ko'rishimiz mumkin. Misol uchun, 2023 yilda e'lon qilingan reyting natijalariga ko'ra yuqori 10 talikka kirgan OTT lar bugungi kunda boshqa OTT larga nisbatan ichki salohiyatlaridan to'laroq foydalanib kelmoqda.

OTTning tadbirkorlik salohiyatidan foydalanish mexanizmini ishlab chiqish murakkabligi shundaki, uni ta'minlash uchun maxsus dasturlar yoki uslublar (modellar) zarur bo'ladi. Bunda ijtimoiy tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishning asosiy muvaffaqiyat omillarini aniqlash va ularni samarali boshqarish hamda rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish talab etiladi. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, eng yuqori natijaga erishgan OTT larda professor- o'qituvchilar malakasi yuqoriligi, ta'lim xizmatlarining hajmi va uning sifati, OTT ning obro'si va ularning xorijiy OTTlar bilan aloqalari, ular ichki muhitining bozor talablariga muvofiqligi aniqlandi. Shuning uchun yuqorida sanab o'tilgan elementlar mamlakatimizdagi boshqa OTT larda ham tadbirkorlik faoliyati va salohiyatining asosi bo'lib hisoblanadi. OTT larda professor-o'qituvchilar va talabalarni tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga jalb qilish, OTT ni rivojlantirishga qaratilgan qarorlarning samaradorligi, grantlarni ishlab chiqish, moliyaviy barqarorlikka yetarli darajada e'tibor berilmayapti. Shuning uchun, bugungi kunda OTM lar yuqorida sanab o'tilgan elementlar va ularni yanada shakllantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishi zarur.

Mamlakatimiz OTT larining ijtimoiy yo'naltirilgan rivojlanishi sifat jihatidan yangi natijalarni shakllantirish zarurati bilan bog'liq. Xususan, tadbirkorlik salohiyatini bosqichma-bosqich shakllantirish va bozor talablariga moslashishga, raqobat muhitida ishlashga tayyor bo'lishga imkon beradigan boshqaruv mexanizmini shakllantirish. OTT larning tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirish faoliyati umumiy salohiyatni shakllantirishni ta'minlash uchun ishlab chiqilgan va tanlangan rivojlanish strategiyasiga muvofiq o'z jarayonlarini moslashtirish zarurdir. Shunday qilib, OTT lar tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi uchun strategiyasini ishlab chiqish va turli xildagi faoliyatni amalga oshirishi talab etiladi. Ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning samarali tizimi va mexanizmi yetarlicha ishlab chiqilmaganligi sababli ko'p davlat OTT larda reyting ko'rsatkichlarida ortda qolmoqada. Shuning uchun ushbu OTT lar tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishi, tegishli dastur va loyihalarni ishlab chiqishi maqsadga muvofiqdir.

Zamonoviy rivojlanish sharoitida oliy talim muassasalarning ijtimoiy tadbirkorlik sub'ekti sifatida ko'rib chiqish va ularning ishbilarmonlik muhitini o'rganish muhim hisoblanadi. Shuning uchun oliy talim muassasalar faoliyatida ijtimoiy tadbirkorlik salohiyatini tahlil qilish metodologiyasini ishlab chiqish va baholash lozim. Baholash natijalari asosida OTTning rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash imkoniyati tug'uladi.

Oliy ta'lim muassalari ijtimoiy tadbirkorlik sub'ekti sifatida ichki ishbilarmonlik muhitini ob'ektiv va oqilona baholashning qiyinchiligi, oliy talim muassasasi ichidagi jarayonlarning murakkabligi, xilma-xilligi hamda yo'nalishi tufayli bir-biridan sezilarli farqlarga egaligi va ularni universal ko'rsatkichlar yordamida ifodalab bo'lmasligi sababli ishbilarmonlik muhitini baholash uchun unga ta'sir etuvchi barcha omillarni o'rganish zarur.

Bozor iqtisodiyoti nuqtai nazaridan OTT lar o'zaro ta'sir qiluvchi ikkita bozorning ob'ektlariga, ya'ni ta'lim xizmatlari bozori va mehnat bozoriga bog'liq bo'ladi. Shu munosabat bilan ularni ikki o'lchovli ob'ektlar sifatida ko'rib o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

$$W(P, K), \quad (1)$$

bu yerda:

P — ta'lim xizmatlari bozorida jozibadorlik ko'rsatkichi;

K — mehnat bozorida raqobatbardoshlik ko'rsatkichi.

Ushbu ko'rsatkichlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular bir necha omillarga bog'liqdir. Omil qiymatlarini aniqlashda eng oson usul hisoblangan o'rtacha qiymatlarni topish usulidan foydalaniladi.

$$P_j = \sum_{i=1}^n x_i f_{ij}, \quad \sum_{i=1}^n x_i = 1 \quad (2)$$

$$K_j = \sum_{k=1}^m Y_k g_{kj}, \quad \sum_{k=1}^m Y_k = 1 \quad (3)$$

$$P_{min} \leq P_j \leq P_{max}, \quad K_{min} \leq K_j \leq K_{max} \quad (4)$$

bu yerda:

f_{ij} - jozibadorlik ko'rsatkichi uchun i -omil, j - ob'ekt (OTT) qiymati;

x_i - jozibadorlik ko'rsatkichi uchun og'irlik koeffitsienti i -omilining qiymati; n — jozibadorlik ko'rsatkichi uchun omillar soni;

g_{kj} - raqobatbardoshlik ko'rsatkichi uchun k -omil, j – ob'ekt (OTT) qiymati;

Y_k - raqobatbardoshlik ko'rsatkichi uchun og'irlik koeffitsienti k - omil qiymati;

m - raqobatbardoshlik ko'rsatkichi uchun omillar soni;

$j = \overline{1, j}$, j - ob'ektlar soni (OTT lar);

$P_{min}, P_{max}, K_{min}, K_{max}$ - P va K ko'rsatkichlarining minimal va maksimal ko'rsatkichlari.

Strategik rejalashtirish nazariyasida bozorlarni ikki ko'rsatkich (sanoatning jozibadorligi va korxonaning raqobatbardoshligi) asosida tahlil qilishda General Electric kompaniyasi tomonidan taklif qilingan McKinsey modeli qo'llaniladi³.

McKinsey matritsasiidagi ob'ektlarning har birini joylashtirish uchun ularning P va K koordinatalarini aniqlash kerak. Modelda ushbu koordinatalarning bo'linishini aniqlashda (2), (3) omillarning o'rtacha o'rtacha qiymati ishlatiladi. Har bir omil uchun qiymatlarni ekspert (1 dan 5 gacha) baholash tavsiya etiladi, agar bir nechta mutaxassislar bo'lsa, ularning qiymatlarining o'rtacha arifmetik qiymati hisoblanadi. Og'irlik koeffitsientlarini baholash usuli belgilanmagan ushbu vazifa uchun ierarxiyani tahlil qilish usuli tavsiya etiladi.

Modelning muhim tarkibiy qismi - bu elementlarning qiymatlari aniq o'lchovlarga ega emasligidir, balki sub'ektiv ehtimollarga asoslangan mantiq matritsasi (bu matritsalar mutaxassislar tomonidan tayyorlanadi).

Mantiq matrissasi

$$A = (a_{ij}) , i, j = 1, 2, \dots, J$$

bu yerda:

a_{ij} - O_i ob'ektining O_j bilan taqqoslaganda ahamiyatiga mos keladigan raqam. Mantiq matritsasi uchun A ning maksimal o'ziga xos qiymatini topish talab qilinadi. I_{max} y o'ziga xos qiymatlarning vektori Z , ya'ni tenglamani yechish kerak.

$$A * Z = Z * \lambda_{max}$$

Vektorning tarkibiy qismlari Z va og'irlik koeffitsientlari bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, kompaniyalarning strategik joylashuvi strategik marketingning eng muhim

³ Muallif ishlanmasi

vositasidir, ammo ta'lim xizmatlari bozorini tahlil qilish amaliyotida ushbu vosita to'g'ri qo'llanilmaydi. Ushbu bo'shliqni ma'lum darajada ushbu ish to'ldiradi.

McKinsey modelidan foydalangan holda mutaxassislik bo'yicha OTT larning strategik holatini baholashni quyidagi boshqichlarini taklif qilamiz:

- a) yetakchi oliy ta'lim muassalarni tanlash;
- b) og'irlik koeffitsientlarini aniqlash;
- c) oliy ta'lim muassasalarining McKinsey matritsasida joylashishi.

Tadqiqotimizda Respublikamizda faoliyat yuritayotgan davlat oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligi va jozibadorligini tahlili amalga oshiriladi.

Yetakchi oliygohlarni tanlash bosqichida muhim o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan yetakchi oliygohlar aniqlanadi.

Birinchi bosqichda tanlangan mutaxassislik bo'yicha mintaqaviy ta'lim xizmatlari bozorida sezilarli ulushga ega bo'lgan yetakchi oliygohlar aniqlanadi. Buning uchun Boston konsalting guruhining (BKG) o'zgartirilgan usulidan foydalanish maqsadga muvofiq. Ushbu usulda oliygohlar BKG matritsasida ikkita koordinatada joylashgan bo'ladi.

Ikkinchi bosqichda jozibadorlik va raqobatbardoshlikka ta'sir qiluvchi omillarni tanlash va ularning og'irlik koeffitsientlarini baholash kerak.

Jahon olimlari tomonidan ishlab chiqilgan OTT larning ijtimoiy tadbirkorligining rivojlanish holatini baholashdagi yondashuvlarda mavjud bo'lgan qator kamchiliklarni inobatga olgan holda biz yangi baholash uslubiyatini taklif etdik. Taklif etilayotgan uslubiyatning afzalligi shundaki, shkala parametrlarining ahamiyatliligi OTT larda tadbirkorlik rivojlanishi ekspert guruhlari tomonidan qayta o'rganib chiqilgani va baholanganidir. Bundan tashqari, OTT tadbirkorligi jozibadorligi va raqobatbardoshligi parametrlarini aniqlash uchun ballar uchga bo'lingan: 1, 5 va 10. OTTlarda ijtimoiy tadbirkorlik muhitini baholash uslubiyatini takomillashtirish maqsadida so'rovnoma ishlab chiqilgan va tadbirkorlikni jozibadorligi va raqobatbardoshligi ekspertlar tomonidan baholangan.

Tadqiqot davomida OTT tadbirkorligi muhitini baholash uchun taklif etilgan iqtisodiy-ekologik guruhlarning salmog'ini besh balli shkala bo'yicha baholashni taklif etdilar. Shuningdek, har bir omil baholanadigan asosiy ko'rsatkichlar zanjirlandi.

Ekspertlar bahosining haqqoniyligi darajasini tekshirish uchun har bir guruh ko'rsatkichlar bo'yicha konkordasiya koeffisienti W hisoblab chiqildi. Bu koeffisient

ekspertlarning fikri qanchalik kelishilganini ko'rsatadi. Konkordasiya koeffisienti quyidagi formula bo'yicha hisoblangan:

$$W = \frac{12 \sum_{i=1}^n (r_i - \bar{r})^2}{N^2 (n^3 - n)}$$

Bu yerda: 12 – Kendall tomonidan taklif etilgan konkordasiya koeffisientini hisoblash formulasidagi doimiy kattalik; n – ko'rsatkichlar soni; N – ekspertlar soni; r_{ij} – j -ekspert aniqlagan i -ko'rsatkichning darajasi; r_i – barcha ekspertlar bo'yicha i -ko'rsatkichning darajalari summasi; \bar{r} – barcha ko'rsatkichlar ballarining o'rtacha summasi ($\bar{r} = N(n+1) / 2$); W – Kendallning konkordasiya koeffisienti .

Konkordasiya koeffisientining qiymati 0 dan 1 gacha oraliqda o'zgarishi mumkin. Qiymat 1 ga teng bo'lishi ekspertlarning fikri bir ekanini, 0 ga teng bo'lishi esa berilgan baholar o'rtasida bog'liqlik yo'qligini anglatadi. Agar $0,2 \leq W \leq 0,4$ bo'lsa, ekspertlarning fikrlari o'rtasida kelishuv yo'qligini, $W \geq 0,6$ bo'lishi esa ekspertlarning fikri deyarli bir xil ekanligidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, har bir baholash koeffisientini aniqlash uchun Fishborn formulasidan foydalandik:

$$a_i = 2 * (n - r_i + 1) / n * (n + 1) \quad ()$$

(barcha ko'rsatkichlar uchun i 1 dan n gacha)

bu yerda: a_i – i -mezonning salmoqlilik koeffisienti; n – baholash mezonlari soni; r_i – i -ko'rsatkichga berilgan rang.

Raqobatbardoshlik omillarining salmoqliligiga ekspertlar bergan baho va ekspertlarning fikri kelishilganligini tekshirish natijalari 1 va 2 -jadvallarda keltirilgan.

Ta'lim xizmatlari bozorida jozibadorlik ko'rsatkichiga eng katta ta'sir ko'rsatadigan omillar sifatida biz quyidagilarni tavsiya qilamiz:

- o'qish narxi;
- professor-o'qituvchilar tarkibining malakasi;
- moddiy-texnik baza, shu jumladan kutubxonalar va talabalar turar joylari;
- nufuzli firmalarda amaliyotni o'z ichiga olgan amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish imkoniyati;
- potentsial ish beruvchilar bilan aloqalar.

Mehnat bozorida raqobatbardoshlik ko'rsatkichiga eng katta ta'sir ko'rsatadigan omillar sifatida biz quyidagilarni tavsiya qilamiz:

- OTTning obro'si va mavqei;
- tanlangan mutaxassislik bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash sifati;
- ushbu OTT bitiruvchilari bilan hamkorlik tajribasi;
- jamiyatdagi mutaxassisning ijtimoiy-iqtisodiy holati.

Ekspert baholash usuli yordamida davlat oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligi va jozibadorligini aniqlash uchun ushbu sohadagi tajribaga ega bo'lgan ekspertlar tanlab olindi. Ekspertlar davlat oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligi va jozibadorligini baholashga ta'sir etuvchi omillarni tanlash va ularning og'irlik koeffitsientlarini ekspert baholash matritsasini tayyorladi.

3.-jadval

Davlat oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligi va jozibadorligiga ta'sir etuvchi omillar vaznining ekspert baholari⁴

Ekspertlar /Baholar mezon	Ekspertlar				Baholar yig'indisi	Δ	Δ2	Rang	Mezon qiymati
	1	2	3	4					
Jozibadorlik mezonlari									
o'qish narxi	5	5	4	5	19	14	196	3	0,2
professor-o'qituvchilar tarkibining malakasi	5	4	5	4	18	13	169	1	0,15
moddiy-texnik baza, shu jumladan kutubxonalar va talabalar turar joylari	4	5	5	3	17	13	169	2	0,14
nufuzli firmalarda amaliyotni o'z ichiga olgan amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish imkoniyati	5	5	5	5	20	15	225	4	0,23

⁴Manba: Ekspert baholari asosida muallif hisob-kitoblari

potensial ish beruvchilar bilan aloqalar	4	5	5	5	19	15	225	5	0,28
Baholar yig'indisi	23	24	24	22	93		1054		1
Raqobatbardoshlik mezonlaru									
OTTning obro'si mavqei	5	5	4	5	19	14	196	5	0,35
tanlangan mutaxassislik bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash sifati	4	4	5	4	17	13	169	4	0,29
ushbu OTT bitiruvchilari bilan hamkorlik tajribasi	4	4	4	4	16	12	144	2	0,18
jamiyatdagi mutaxassisning ijtimoiy-iqtisodiy holati	4	4	4	4	16	12	144	3	0,18
Baholar yig'indisi	17	17	17	17	68		709		1

Xuddi shu tarzda davlat oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligi va jozibadorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning og'irlik koeffitsientini topamiz (2.14-jadval).

4.-jadval

Davlat oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligi va jozibadorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning og'irlik koeffitsientlari ekspert baholari ⁵

Ekspertlar /Baholar mezon	Ekspertlar				Baholar yig'indisi	Δ	Δ^2	Rang	Mezon qiymati
	1	2	3	4					
Jozibadorlik mezonlaru									
o'qish narxi	4	5	3	4	16	-8	14	1	0,25

⁵Manba: Ekspert baholari asosida muallif hisob-kitoblari

professor-o'qituvchilar tarkibining malakasi	5	5	5	4	19	-5	11	3	0,2
moddiy-texnik baza, shu jumladan kutubxonalar va talabalar turar joylari	5	4	4	5	18	-6	13	2	0,21
nufuzli firmalarda amaliyotni o'z ichiga olgan amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish imkoniyati	5	5	5	5	20	-4	8	5	0,14
potensial ish beruvchilar bilan aloqalar	5	4	5	5	19	-5	11	4	0,2
Baholar yig'indisi	24	23	22	23	92		85		1
Raqobatbardoshlik mezonlarni									
OTTning obro'si mavqei	4	4	5	5	18	0	21	3	0,24
tanlangan mutaxassislik bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash sifati	5	5	5	4	19	1	24	5	0,32
ushbu OTT bitiruvchilari bilan hamkorlik tajribasi	4	3	4	4	15	-3	17	2	0,13
jamiyatdagi mutaxassisning ijtimoiy-iqtisodiy holati	5	4	5	5	19	1	24	4	0,31
Baholar yig'indisi	18	16	19	18	71		90		1

2.14- jadval natijasiga muvofiq, ko'rsatkichlar soni (n) 5 (4) ga teng. 4 ta ekspert (N) jalb qilingan edi. Barcha ko'rsatkichlar ballarining o'rtacha summasi (\bar{r}) 17 ga teng. Shunda: jozibadorlik mezonlar bo'yicha Konkordatsiya koeffitsiyenti:

$$R(d_2) = n_2 * (m_3 - m) / 12 = 225 * (93) / 12 = 1743,75; W = 1054 / 1743,75 = 0,60;$$

Paqobatbardoshlik mezonlar bo'yicha:

$$R(d_2) = n_2 * (m_3 - m) / 12 = 196 * (68) / 12 = 1110,67; W = 709 / 1110,67 = 0,64;$$

Ekspertlar bergan baholarning kelishilganlik darajasini jozibadorlik va raqobatbardoshlikni maqbul deb hisoblash mumkin, chunki $W = 0,60 > 0,54$; $W = 0,64 > 0,54$;

Ekspertlarning fikriga ko'ra, jozibadorlik mezonlar tarkibida eng ahamiyatli ko'rsatkich nufuzli firmalarda amaliyotni o'z ichiga olgan amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish imkoniyati hamda potentsial ish beruvchilar bilan aloqalar, eng ahamiyatsizi esa professor-o'qituvchilar tarkibining malakasi hamda moddiy-texnik baza, shu jumladan kutubxonalar va talabalar turar joylari, raqobatbardoshlik mezonlari tarkibida eng ahamiyatli ko'rsatkich OTTning obro'si mavqei, eng ahamiyatsizi esa ushbu OTM bitiruvchilari bilan hamkorlik tajribasi.

2.12-jadval natijasi bo'yicha bu yerda ham n teng 5 (4) ga, a $N - 4$. Barcha ko'rsatkichlar ballarining o'rtacha summasi (\bar{r}) 23 ga teng. Shunda jozibadorlik va raqobatbardoshlik mezonlari konkordatsiya koeffitsiyenti: $W = 85 / 107,3 = 0,79$; $W = 90 / 142 = 0,63$;

Ekspertlar bergan baholarning kelishilganlik darajasini to'liq deb hisoblash mumkin, chunki $W = 0,79 > 0,43$; $W = 0,63 > 0,43$

Ekspertlarning fikriga ko'ra, jozibadorlik mezonlar tarkibida eng ahamiyatli ko'rsatkich o'qish narxi, eng ahamiyatsizi esa nufuzli firmalarda amaliyotni o'z ichiga olgan amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish imkoniyati, raqobatbardoshlik mezonlari tarkibida eng ahamiyatli ko'rsatkich tanlangan mutaxassislik bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash sifati, eng ahamiyatsizi esa ushbu OTT bitiruvchilari bilan hamkorlik tajribasi.

Baho ekspertlar hay'ati tomonidan beriladi. Hay'at a'zolari o'rganilayotgan OTT sohasida yuqori malaka va bilimlarga ega bo'lgan bo'lgan mutaxassislardan iborat. Shuningdek, davlat oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligi va jozibadorligini aniqlash hamda baholashda muqobil variantni so'rovnomalar yordamida ham olish mumkin.

Davlat oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligi va jozibadorligini baholashga ta'sir etuvchi omillarni tanlash va ularning og'irlik koeffitsientlarini aniqlagandan so'ng natijadorlikning yig'ma koeffitsiyentini tadqiqotlarimiz natijasida ishlab chiqdik va amaliy jihatdan keng foydalanish uchun taqdim etdik (2.15-javdal).

5.-jadval

Davlat oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligi va jozibadorligini ekspert baholashning yig'ma koeffitsientlari shkalasi ⁶

Integral ko'rsatkich natijasi	Bahoning mazmuni
0 dan 0,25 gacha	Raqobatbardosh emas / jozibali emas
0,26dan 50 gacha	Qisman raqobatbardosh / qisman jozibali
0,51 dan 0,75 gacha	Raqobatbardosh / jozibali
0,76 dan 1 gacha	Mukammal raqobatbardosh / mukammal jozibali

Aniqlangan natija 0 bilan 1 ning o'rtasida bo'ladi, natija birga qanchalik yaqin bo'lsa, mukammal raqobatbardosh yoki mukammal jozibali hisoblanadi.

Shunday qilib, OTT lar tadbirkorlik muhitini baholash uchun taklif etilgan uslubiyat balli usulni qo'llashga asoslangan va unda salmoq koeffitsientlaridan foydalaniladi . Bu OTT lar da tadbirkorlik salohiyatini aniqlash va rivojlantirish imkonini beradi.

Xulosa.

Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-tadbirkorlik muhitini rivojlantirish ichki salohiyatni mustahkamlash (tadqiqotlarni tijoratlashtirish, biznes-inkubatorlar yaratish), hamkorlikni kengaytirish (ish beruvchilar, startaplar va xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish), raqamli transformatsiya (zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish) hamda monitoring tizimini (raqobatbardoshlik va jozibadorlik ko'rsatkichlarini doimiy baholash) yo'lga qo'yish orqali amalga oshirilishi zarur.

⁶Муаллиф ишланмаси

Taklif etilayotgan metodologiya oliy ta'lim muassasalarining ijtimoiy-tadbirkorlik faoliyatini strategik jihatdan boshqarishga keng imkoniyatlar yaratadi va ularni mintaqaviy iqtisodiyotning asosiy tarmog'iga aylantirishga xizmat qiladi, bu esa pirovardida ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirib, innovatsion rivojlanishga yangi turtki beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Clark, B. (1998). *Creating Entrepreneurial Universities*. Pergamon Press.
2. Batovrina, E.V., Kazantseva, A.K. (2020). *University Social Entrepreneurship: Models and Mechanisms*. HSE Publishing.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim vazirligi. (2021). *Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'limni rivojlantirish strategiyasi*. Toshkent.
4. Kendall, M. (1970). *Rank Correlation Methods*. Griffin.
5. UNESCO. (2022). *Global Education Monitoring Report*. <https://unesdoc.unesco.org>.

ТАЪЛИМДА ОИЛАНИНГ РОЛИ

Пардаева Севарахон Ақромовна

А. Қодирий номидаги Жиззах давлат педагогика университети Ижтимоий фанлар кафедрасининг 2-босқич таянч докторантию Телефон: +998 905384808; Э-маил: СевараАП@gmail.com

Annotation: Education begins not only in schools but also with the parents, who are the first teachers of the children. A child's development, character, and personality are shaped directly by the attitudes and values within the family environment. In this blog post, we will closely examine the role of families in children's education and their impact on development. Let's explore how good education provided by families reflects in children's lives.

Таълим, фақат мактабларда эмас, балки болаларнинг биринчи ўқитувчилари бўлган ота-оналар томонидан ҳам бошланади. Болаларнинг ривожланиши, характери ва шахсияти, бевосита оилавий муҳитдаги тутумлар ва қадриятлар билан шаклланади. Ушбу блог ёзувида, оилаларнинг болаларнинг таълимидаги роли ва ривожланишларига таъсирларини яқиндан кўриб чиқамиз. Оилалар томонидан тақдим этилган яхши таълим, болаларнинг ҳаётига қандай акс этишини келинг, биргаликда кашф этайлик.

Ота-оналар болаларнинг биринчи ўқитувчилари Бола туғилган кундан бошлаб, улар атрофидаги одамларнинг, айниқса ота-оналарининг хатти-ҳаракатларини ва сўзларини тақлид қилишади. Оилалар, болаларнинг биринчи ўқитувчилари бўлиб, уларнинг хатти-ҳаракатларини, қадриятларини ва муносабатларини шакллантирадилар. Ота-оналарнинг тутумлари, болаларнинг шахсиятининг ривожланишида асосий рол ўйнайди. Шунинг учун ота-оналар болаларига ўргатган дастлабки қадриятлар, уларнинг ҳаётга бўлган қарашларини ва характерларини шакллантиради.

Оила муҳитининг болаларнинг шахсиятига ва хатти-ҳаракатларига тўғридан-тўғри таъсири бор. Севги билан тўлдирилган ва қўллаб-қувватлайдиган оила муҳитида,

болалар ўзларига бўлган ишончни ва шахсиятини ижобий томонга ривожлантирадilar. Бошқа томондан, зўравонлик, кўрқув ва гуноҳкорлик туйғулари мавжуд бўлган муҳитда ўсаётган болалар, салбий шахсият хусусиятларини ривожлантиришлари мумкин. Oilалар, болаларининг соғлом ривожланиш жараёнини қўллаб-қувватлаш учун уйларида хавфсиз ва севги билан тўлган муҳит яратишлари керак.

